

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

TARIX FAKULTETI

UMUMIY TARIX KAFEDRASI

RO`ZIYEVA NODIRA

JAMOL ABDUL NOSIR: SIYOSIY PORTRET

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Ilmiy rahbar: dots. Raxmatullayev M.R.

SAMARQAND - 2012

Mundarija:

Kirish.....	2-4
I.Bob.Jamol Abdul Nosir: Inqilobiy siyosiy faoliyatining boshlanishi.....	5-24
1.1.Hayot yo`lining boshlanishi.....	5-16
1.2.Nosir 23-iyul inqilobining yetakchisi.....	17-24
II.Bob.Nosir davrida Misrning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti (50-60-yillar).....	25-44
2.1. Nosir hukumatining islohatlari va ularning ijtimoiy-siyosiy oqibatlar.....	25-35
2.2.Mamlakatdagi ichki siyosiy kurash.....	36-44
III.Bob.Nosir ma'muriyatining tashqi siyosati.....	45-56
3.1.Misr va Yaqin Sharq muammosi.....	45-47
3.2.Misr va Sotsialistik davlatlar o`rtasidagi munosabatlar.....	48-52
3.3.Misr va G`arb dunyosi o`tasidagi munosabatlar.....	53-56
Xulosa.....	57-60
Adabiyotlar ro`yxati.....	61-62

Kirish.

Uzoq yillar ingliz mustamlakasida boʻlgan Misr 1949-yil ozodlikka erishadi. Bu mustaqillikni qoʻlga kiritish uchun juda koʻp qiyinchiliklarni boshidan oʻtkazdi. 74 yil Buyuk Britaniya mustamlakasida boʻlgan Misr xalqi inglizlar tomonidan haq-huquqlari poymol etilib, Misrning tabiiy boyliklari inglizlar tomonidan ayovsiz talandi. Bunday ogʻir vaziyatda Misr xalqi mustamlakachilarga oʻz noroziliklarini bildirib turdi. Jumladan, namoyishlar va vaqti-vaqti bilan ish tashlashlar uyushtirilib turdi.¹

Xalqning noroziligi oqibatida va siyosiy kuchlarning say-harakati bilan 1950-yil 12-yanvarda Naxxoz boshchiligida hukumat tuziladi. Ammo bu hukumatni borgan sari xalq orasida obroʻsi tushib borardi. Chunki bu hukumat hali ingliz mustamlakasi taʼsirida edi. Shunday ogʻir vaziyatda Misr va Misr xalqini mustamlakachilik zulmidan olib chiqadigan shaxs kerak edi. 1952 – yil 23-iyulda Zubbad al-Ahror (“ozod ofetserlar” tashkiloti) armiyasiga tayanib davlat tuntarishini amalga oshirdi. Ingliz okupatsiyasiga barham berish va mustaqillikni qoʻlga olish maqsadida harakat qildi. Misr qiroli Foruq 7 oylik oʻgʻli foydasiga taxtdan voz kechdi va taxtni yangi qiroli Fuad II nomi bilan 7 oylik bola boshqardi. Lekin real hokimiyat toʻntarishni amalga oshirgan Inqilob Qoʻmondonligi Kengashi qoʻliga oʻtdi. Misr xalqi oʻz mustaqilligi va erkinligini qoʻlga kiritish uchun Najibni maydonga chiqardi. Lekin afsuski Najib ozining hukumronlik davrida Misr xalqiga ular kutgan hayotni bera olmadi. Najib oʻzi ichki va tashqi bosim natijasida deyarli mustaqil siyosat olib bora olmadi. Buning oqibatida Misrning tabiiy boyliklari ustidan toʻliq nazorat Metrapoliya qoʻlida edi. Najibni olib brogan siyosatidan norozi boʻlgan Misr xalqi bir necha bor namoyishlar oʻtkazadi. Bu namoyishlar oqi batida 1954 – yil Misrni milliy erkinlikka olib chiqaolgan “Ozod Ofetserlar” tashkilotining ledrlaridan biri Jamol Abdul Nosir Misr tarixi maydoniga keladi. Nosir Prezidentligining dastlabki kunlaridan boshlab mamlakat iqtisodini rivojlantirishga katta eʼtiborini qaratdi. U dastlab

¹ I.A Karimov. “Oʻzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” T.,2011

ingliz okupatsiyasiga barham berishni o'zining asosiy vazifasi deb bildi va bu masala yuzasidan inglizlar bilan muzokaralar olib bordi va ijobiy natijalarga erishdi.

1954 – yil 19-oktyabrda Angliya Misr shartnomasi imzolandi. Unga muvofiq Britaniya qo'shinlari 20 oy ichida Misr zaminini tark etishi shart edi. 1956 – yilning iyulida ingliz qo'shinlarining oxirgi bo'limi Port – Saidni tark etdi. Bu esa Misrni ulkan g'alabasi bo'ldi va Misr to'liq mustaqillikni qo'lga kiritdi.

Nosir mustaqillikning ilk kunlaridanoq Misrni arab dunyosidagi ledir davlatga aylantirish uchun ,astoydil harakat qildi. Misrni va Misr xalqini hayotini yaxshilash uchun turli xil islohatlar o'tgazdi. Jumladan, uch bosqichdan iborat agrar islohot o'tgazadi. Buning natijasida ko'plab yersiz falohlarga kreditga yer beriladi. Bu e sa yersiz aholining ahvolini yaxshilash uchun katta imkon berdi.

Nosir 1956 – yil 23-iyulda milliyashtirish siyosatini olib boradi. Uning oqibatida ko'plab korxona va fabrikalar hattoki, Suvaysh kanalidan foydalanish huquqi ham Misrga qaytib beriladi. Nosir ichki siyosat bilan birga tashqi siyosatda ham arab dunyosidagi muommolarni hal etishda o'zining katta hissasini qo'shdi.

Men Jamol Abdul Nosir siyosiy portreti mavzusi bilan ikkinchi kursligimdan qiziqib kelganligim uchun shu mavzkuni o'zimning bitiruv malakaviy ish mavzusi qilib oldim.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, birinchidan, Misr mustaqillikka qon to'kishsiz erishganligi, ikkinchidan, Nosir olib borgan siyosatlarining natijalari va oqibatlari, uchinchidan, Nosir Misrni arab dunyosidagi lider davlatga aylantirishi va uning Falastin muammolarini hal qilishdagi o'rni, to'rtinchidan, Misr xalqining olib borgan ozodlik uchun harakatlari o'zining dolzarbligiga egadir.

Bitiruv malakaviy ishimning maqsadi, Misrni arab dunyosidagi o'rni va roli, Nosir davrida Misr taraqqiyoti, Nosir amalgam oshirgan islohatlarning Misr hayotiga ta'siri, Yaqin Sharq muammolarini hal qilishda Nosir siyosati qay darajada ekanligini o'rganish va yoritib berishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishimni uchta bob asosida yoritdim.

Birinchi bob “Jamol Abdul Nosir inqilobiy-siyosiy faoliyatini boshlanishi” deb nomlangan bo`lib, bu bobda bitiruv malakaviy ishimning qahramoni hisoblangan, o`zining olib borgan siyosatlari tufayli Misr tarixida o`chmas iz qoldirgan Nosirning biografiyasi va uning siyosat olamiga kirib kelgunigacha bo`lgan faoliyati aks etilgan.

Ikkinchi bob “Jamol Abdul Nosir davrida Misrning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti (50-60-yillar)” deb nomlanadi. Bu bobda Nosir mamlakat siyosiy hayotida muhim o`rin egallaydi. Bundan tashqari bu bobda Misr taraqqiyotidagi iqtisodiy-ijtimoiy o`zgarishlar va siyosiy kurash aks etgan.

Uchunchi bob “Nosir ma`muriyatining tashqi siyosati” deb nomlangan bo`lib, bu bobda Nosirning olib borgan tashqi siyosati uning sotsialistik davlatlarga bo`lgan yaqinlashuvi va Isroilga bo`lgan pozitsiyasi ochib beriladi

Men bitiruv malakaviy ishimni yozishda asosiy adabiyotlar bo`lgan A. Агарышев .”Гамаль Абдель Насер”, И. П. Беляев, Е. М. Примаков. “Египет: время президента Насера”, Б.Н.Гашев. “Государственный сектор в экономике Арабской Республики Египет(1952-1972)” adabiyotlardan foydalandim.Qo`shimcha adabiyot sifatida A.Хамруш. “Революция 23 июля 1952г в Египте”, Ш.А.аш-Шафии. “Развитие национально-освободительного движения в Египте(1882-1956)” kabi adabiyotlardan foydalandim.

I.BOB. JAMOL ABDUL NOSIR:INQILOBIY SIYOSIY FAOLIYATINING BOSHLANISHI.

1.1.Hayot yulining boshlanishi

“Men ishchilar dehqonlar askarlar , ziyolilar va milliy burjuaziya boshchiligidagi ittifoqqa ulardagi birdamlik va hamjihatlikka qattiq ishonaman, bu birlik ichki ijodiy faoliyati, oldin bir necha bor aytganimdek, mamlakatimizda mo`jizalar yaratishga imkoniyat boradi”.²

J.A. Nosirning 1967-yil 9-iyuldagi Qoxira telekanalida bergan intervyusida. tufayli mamlakatning ko`p joylari xarob bo`ldi. Ming-minglab insonlar bu bosqinchilik vaqtida xayotdan ko`z yumdilar.Ushbu voqea J. A. Nosirning 1967-yil 5-iyunda Isroil tomonidan Misrga uyushtirilgan bosqichiligi iste`foga chiqish qaroriga olib keladi. Uning televidenyadagi iste`foga chiqish qaroriga javoban Qoxirada bo`lib o`tgan mitinglarda poytaxt aholisi J.A. Nosirni o`z o`rnida qolishini talab qilib chiqdilar “Sen 23-iyul kunida dono rahbarliginingilg pallasida shu uronni o`yg`otgan millionlar nomidan gapiramiz. “Yo`q”, “Yo`q” sen bizning yo`lboshchimiz Respublikamiz Prezidentisan va bizning yo`lboshchi va prezidentimiz etib tanlangansan”<sup>3</sup> deyilgan edi. Milliy Assambleya Bayonatida. Misr xalqi katta yo`qotishlarga qaramasdan J.A. Nosirni qo`llab quvvatladi. Uning xalq ishonchini shunchalik qozonganligi uchun Misr xalqi uchun naqadar qadrli shaxs ekanligidan dalolat beradi uning nafaqat Misr uchun balki, Arab dunyosi uchun qilgan xizmatlar taxsinga sazovordir.

J.A.Nosir 1956-1970-yillarda Misr prezidenti Misr davlat va siyosiy arbobi bo`lgan. Jamolning otasi-Abdul Nosir dehqon oilasidan bo`lsada, biroq ta`lim olishning uddasidan chiqdi. Bu uning amaldorlar qatorin to`ldirishga imkoniyat berdi. U Iskandariyadagi pochta vakili lavozimiga olindi. 1917-yilda rafiqasi Faximaga uylanadi 1918-yilda 15-yanvada Abdul Nosir oilasida Jamol dunyoga

² А. Агарышев .”Гамаль Абдель Насер”. М., 1975. стр-10

³ “Президент Объединенной Арабской Республики Гамаль Абдель Насер”. “Правда” 1958, 29 апреля стр-19

keladi. Qishloq mirzasi Jamolni beni-murda tug'rilanganlar ro'yxatiga kiritadi. Bu qishloq Asyutdan to'rt kilometr uzoqlikda joylashgan. Asyut shahri o'z vaqtida mamlakat tarixida muhim rol uynagan. Bu erda qadimda quyi va yuqori Misrning daryo va karvon yo'llari kesishar edi. Hozirgi Asyutdan uncha uzoq bo'lmagan joyda firavin Exnaton taxminan IV ming yil avval quyi va yuqori Misrni birlashtirib, o'z poytaxti Axetatonga asos solgan edi, o'sha paytdan Asyutmamlakat tarixiga uning birligi ramzi sifatida kirgan Jamol ham shu qishloqda tavallud topgan. Bu erda qachonlardir otasi tug'ilgan, bobosi o'mumrining oxirigacha shu yerda yashgan. Uning ajdodlari esa qishloq qabristoniga dafn etilgan.

1923-yilda Jamolning otasi Qoxiradan 36 km shimoliy-sharqdagi kichik Xattatba qishlog'iga ko'chib o'tadi. 20-yillarda bu jim-jitgina qishloq diltasi va sahro chegarasida bo'lgan bir yil o'tib, hali sakkiz yoshga to'lmagan Jamol Xattatbadan Qoxiraga ketadi. Jamol tog'asining uyidan "Naxxasin" maktabiga qatnay boshladi. Bu erda u birinchi marta katta shahar hayoti bilan tanishdi. Maktabdan tashqari Jamol arab yozuvi arifmetika bilan shug'ulandi u yana Iskandariya bilan tanishdi.⁴

O'sha yillari Jamol uchun fojeali voqea-ro'y beradi. Onasi Faxima Iskandariya shahrida dunyodan kuz yumadi. Jamol Abdul Nosir onasini juda ham yaxshi ko'rardi. Keyinchalik J.A.Nosir o'zining bergan intervyularida onasining o'limi unda o'chmas iz qoldirganini aytib o'tgan edi. Onasining o'limi unga kuchli zarba bo'ladi. U otasidan onasining ota-onasi yashaydigan Aleksandriyada qolishini suradi. Abdul Nosir bunga rozi bo'ladi. O'quv yili boshlanishi arafasida otasini yoniga xattatbaga qaytadi Abdul Nosir ikkinchi marta uylagandan so'ng Jamol oiladan uzoqlashadi. U Qoxirada o'qishni va yashashni davom ettiradi Otasi esa Suvayshda yashar edi. Suvayshda Jamol uchun qulay maktab bo'lmaganligi uchun otasi uning Xeluandagi maktab –internatga berishga qaror qiladi. Biroq Xeluanda Jamol uzoq vaqt yashmadi. U yana Alikandriyaga qaytib Raas al Tun o'rta maktabiga qatnay boshladi. Ammo otasining ish majburiyati tufayli Jamol

⁴ А. Агарышев "Гамаль Абдель Насер". М., 1975. стр-16

shahardan-shaharga ko'chib yashashga va o'qishga majbur bo'ldi. U keyinchalik "Faridiya" va "al Naxdo" maktablarida ta'lim oldi, "Naxda" maktabida u o'n sakkiz yoshigacha o'qidi. Bu davirda Jamol siyosatga jiddiy qiziqdi maktabda uning sevimli fani tarix edi. Bu qiziqishni o'qituvchisi qullab-quvatladi. U Napalyon, Aleksandr Makedoniskiy, Yuliy Sezir, I. Gandi, Russo, Volter hayoti haqidagi kitoblarini qiziqib o'qidi. Ayniqsa Jamol Viktor Gyugoning "Xo'rlanganlar", Dikkensning "Ikki shahar qissasi" romanlarini qiziqish bilan o'qidi. Maktab jurnaliga u muxarrir bo'lib tayinlangach "Volter-inson erkinligi" maqolasini chop ettirdi. Bu moqolada u Volterni ochiqchasiga maxtaydi "Volter va russo"⁵ –yozgan edi. Jamol-1789-yilgi inqilobni tayyorlaganlar yoki Jamol arab yozuvchlari asarlariga ham qiziqardi. Ayniqsa uning siyosiy dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatgan asar Taufiq al Hakimning "ruhning qaytishi" asaridir. Bu asarda Misr xalqini milliy uyg'onishga va ozodlik uchun xalqni kurashga chorlovch yo'l boshchi zarurligi ta'ketlangan edi. Bu vaqtda mamlakatda inglizlarga qarshi kayfiyat kuchayadi. 1934-yil iyunda Qoxirada ishchlar va politsiyachilar o'rtasida keskin ixteloflar yuz berdi. Bunga javoban mamlakatni politsiya qatog'onlari qamrab oladi. Hukumat konstitutsiyasini bekor qiladi. Shunda "vafd" milliy konferinsiya chaqirib, qirol dan demokratik islohatlarni talab qiladi. Inglizlar yordamiga tayangan qirol bunga rad javobini beradi. Bu esa Misrda umumiy norozilikni keltirib chiqaradi. 1935-yil noyabrda mamlakatda inglizlarga qarshi ish tashlashlar va norozilik boshlanadi. Bu norozilik chiqishlarida Jamol faol ishtirok etadi. Uning nomi namoyishchilar ro'yxatiga kiritiladi. Og'ir jarohatlangan Jamol gospitalga jo'natiladi.

Qirol oxir-oqibat yon berishga majbur bo'ladi. Misrliklar g'alaba qozonadi. "Vafd" qaytadan hokimiyatga keladi. Naxxas posho hukumati 1936-yil avgustda ingliz-misr bitimini imzoladi. Bu rasman Angliyaning harbiy okkupatsiyasi tugaganligini bildirar edi. Biroq ushbu kelishuv asosida inglizlar harbiy bazasini saqlab qolishiga olib keldi.⁶

⁵ Ш.А.аш-Шафии.Развитие национально-освободительного движения в Египте(1882-1956). М.,1961,стр-119

⁶ А. Агарышев Гамаль Абдель Насер. М., 1975. стр-22

1936-yil Jamol maktabni tugatgach, Harbiy Akademiyaga kirishga urinib ko'rdi. U ofetser bo'lishni juda hojlardi. Lekin uning namoyishlarda ishtiroki Harbiy akademiyaga kirishga imkon bermadi. Jamol harbiy soha haqida o'ylamasdan boshqa yo'l izlashga o'tdi.

Arab davlatlarida shunday qonun mavjud ediki, unga muvofiq faqat huquqiy ta'lim olgan shaxs mamlakatning siyosiy hayotida faol ishtirok etard. Masalan, huquqshunoslik gazeta va jurnallar chiqarishga, ijtimoiy tashkilotlar tuzishga ruxsat olardi. Jamol yoshlik yillaridan kurashlarda qatnashib, inqilobiy bo'lib yetilgan edi. Buni hisobga olgan Jamol Qohira universitetining huquqshunoslik fakultitiga ariza topshiradi.

Universitet imtiyozli Harbiy Akademiyadan farqli ravishda yetarli darajada demokratik o'quv dargohi edi. O'ttizinchi yillarda bu yerda minglab dehqon farzandlari o'qirdi. Misrdagi o'quv yili oktabrning birinchi sanalaridan boshlanardi. Jamol o'qishga kirishga muvaffaq bo'ladi. Universitetda qiziqish bilan o'qidi, biroq harbiy karyera haqida orzusidan kechmadi. To'satdan u universitetning yarim yilligini o'qib Harbiy Akademiyaga qo'shimcha qirq to'rt tinglovchi qabul qilishi haqidagi e'lonini eshitib qoladi.

Bu safar Jamol boshqacha yo'l tutadi. U nufuzli homiy himoyasiga erishishga qaror qilib o'z tog'asi Halil yordami bilan Mudofa Vazirligi kotibining o'rinbosari general Ibrohim Xayri posho qabuliga kirishga muvaffaq bo'ladi. General Jamolni o'z uyida qabul qiladi. Xayri posho milliy ofetser kadrlari tarbiyasi haqida qayg'uradigan inson edi. General uni qo'llab-quvvatlashga va'da beradi.

O'ttizinchi yillarda Misr tarixida birinchi marta Akademiya auditoriyalari va harbiy maydonlarida jamiyatning o'rta qatlamidan chiqqan-kadetlar paydo bo'ldi. Nafaqat Jamol, balki boshqa ofetserlar-1952-yil Misr inqilobi sirasiga kirgan Abdul Hakim Amir, Anvar Sadat, Husayin ash Shafi, Holid Mohiyiddin va uning akasi Zakariyo Mohiyiddin va boshqalar aynan shu yillarda Akademiyaga kirgan edilar. Nosir va uning do'stlari Misr armiyasining shubhasiz yangi elementlari edi. O'z vatani mustaqilligi uchun o'ziga bag'ishlagan jo'shqin vatanparvarlik kaafiyatidagi yoshlar edi ular. 1937-yil 17-martda Jamol Harbiy Akademiyaga

qabul qilinadi. ⁷U o'z oldiga aniq maqsadini ya'ni,yaxshi ofetser bo'lishni qo'ydi.Darhol rahbarlar uning tashkilotchilik qobiliyatini yuqori baholadilar .1938-yilda unga yangi tinglovchilar tanlovi uchun kuzatuvchi qilib qo'yadilar.Jamolning eng yaqin do'sti Abdul Hakim Amir edi.Kursdoshlari Jamolni "Jimmi",Amirni esa "Robinzon " deb chaqirardilar."Jimmi" imtihonlarni a'lo darajada bajarishi natijasida darhol unga Kapral unvonini beradi. ⁸ Haarbiy Akademiya dasturi uch yilga mo'ljallangan edi,biroq armiya ofetserlariga kuchli ehtiyoj sezilib,ta'lim olishning tezkor yo'nalishini talab qiladi.O'n olti oydan so'ng kapral "Jimmi"bitiruv imtihonlarini yuqori ko'rsatkichlar bilan topshiradi. Jamol Akademiyada o'z vaqtining ko'pchiligini kutubxonada o'tkazadi.U ko'proq o'z e'tiborini harbiy tarix bo'yicha asarlarga Napalion,Bismark,Kamol Otaturk biografiyalariga qaratdi."Jimmi"ning asosiy qiziqishi Yaqin Sharqdagi iqtisodiy muommolarda namoyon bo'ldi.

Jamol Harbiy Akademiyani tugatgach,Munkabad stansiyasida ishlay boshladi.Jamolning Munkaboddagi ko'plab xizmatdoshlari uning do'stlariga aylanib keyinchalik "Ozod ofetserlar"tashkilotiga kirdi. Jamol Misr armiyasining ozodlik va vatanning tahqirlangan nomusi uchun kurashga ko'tarishga ishonardi.Uning ishonchini Misr tarixida mislsiz qahramonliklar ko'rsatgan Muhammad Ali va Arabi posho vatanparvarlik harakatlarini mustahkamladi.Jamol Arabi posho boshlagan kurashni davomettirish mustamlakachilarga qarshi jasurona chiqishlari to'g'risida orzu qilardi.

Jamol erksevar fikrlari uchun "qora ro'yxat"ga kiritilishini bilardi.Bu esa navbatdagi unvonni olishga kam miqdorda xavf solardi.Rahbarlarni g'aflatda qoldirish uchun rasman ingliz-misr ma'muriyati boshqaruvi ostida bo'lgan Sudanga jo'natishni so'raydi.Unga Amir ham qo'shiladi.

Tezda do'stlar Xartunga yetib kelishadi. Harbiy Komendatura binosida uni shirakayf ofetserlari guruhiga duch kelishadi.Komendantning bir o'zi ichishni yoqtirmasdi,shu sababli bu ofetserlarni bu kompaniyaga tortgan edi.Albatta

⁷ Ш.А.аш-Шафии.Развитие национально-освободительного движения в Египте(1882-1956). М.,1961,стр-123

⁸ И. П. Беляев, Е. М. Примаков. Египет: время президента Насера. М., 1981, стр-34

Xaartumdagi hayot afzalliklarga ega bo'lsa-da, ukeyinchalik Avliyaga jo'natiladi. Bu davrda Yevropada ikkinchi jahon urushi kelib chiqdi. Tezda urush dahshati Misrga ham yoyiladi. Germaniya o'zining strategic va xomashyo bazalariga ega bo'lish uchun Misrga katta e'tibor beradi. Sanoat, kommunikatsiya mamlakatning inson zaxiralari ingliz harbiy qo'mondonligi nazoratida edi. Misr hukumati dastlab Germaniya bilan keyinchalik Italiya bilan munosabatlarini uzdi. Biroq ularning barchasiga qaramasdan, vafot etgan Fuod o'rniga kelgan qirol Faruq va uning maslahatchilari getlirchilarga hayrixohlik bildirishadi. Mamlakatda ijtimoiy fikr parchalandi. Fashistlarga qarshi kayfiyatdagi misrliklarning ko'pchiligi Vafd partiyasi atrofida jipslashdilar. Ko'pchilik Misrning betarafligini yoqladilar. Vatanparvarlar orasida fashistik Germaniya yoki Italiya yordami bilan ingliz mustamlakachilaridan ozod bo'lishga erishmoqchi bo'lganlar ham bor edi. Nemis agentlari ushbu kayfiyatni qo'llab-quvvatlab "Misr al Fatat" bilan aloqa o'rnatib inglizlarga qarshi qo'poruvchilik aktlarini amalga oshira boshladilar. Saroy doiralari bu vaqtda Rommen boshliq nemis armiyasini qo'llab-quvvatlay boshlaydi. Inglizlar bunga javoban qirolni taxtdan voz kechib yangi hukumat tuzishni talab qildi. Inglizlar talabi bilan taxtga yana Naxxas posho keladi. Inglizlar xalq qo'llab-quvvatlagan hukumatni qaytarishni qiyin vaziyatdan chiqish deb bildi. Naxxas darhol islohatlar o'tkazib dehqonlardan olingan soliqni kamaytirdi, kasaba uyushmalarini logallashtirdi va to'lovni bekor qildi.

Bu voqealar boshlangan paytda J.A. Nosir Avliyada edi. U o'z vatanidan uzoqda bo'lgani uchun vaziyatni to'g'ri baholashga imkoniyati yo'q edi.

Jamol Misrga qaytib kelib, darhol ingliz mustamlakachilaridan norozi armiya ofetserlarini o'z tarafiga yig'ishga harakat qildi. Inglizlarga qarshi kayfiyatdagi ofetserlarning qamoqqa olinishi ular orasida parokandalikni tug'dirgan edi. U o'sha kayfiyatdagi ofetserlar bilan "Al-Azhar" shaharchasida uchrashib, Jamol Abdul Nosir ular bilan birgalikda harakat qilishga kelishib oldi. U o'zi tuzmoqchi bo'lgan tashkilotga "Ozod ofetserlar" nomini berishga qaror qildi.⁹ Nosir bu tashkilotni Misr mustaqilligi uchun kurashuvchi tashkilotga aylantirishga kuch-g'ayrat bilan

⁹ А. Агарышев Гамаль Абдель Насер. М., 1975. стр-34

kirishdi.Qadam-baqadam unga yangi a'zolar qo'shila boshladi.Nosir "Ozod ofetserlar"ni darhol haraktda o'zini ko'rsatishi kerakligini tushunardi va qamoqda o'tirgan do'stlarini foydasiga jon solig'ini e'lon qildi.Nosir boshqa joyga tashlashdan qo'rqardi.Bu tashkilot ishini og'irlashtirardi.Biroq u kutilmaganda Harbiy Akademiyaga yo'riqchi bo'lib tayinlanadi.

Yangi ko'rsatma olgan Nosir General shtab ofitseri unvonida imtihonga tayyorgarlik ko'ra boshladi.U urushning oxirigacha kapitan bo'lib qoldi. Nosirda xizmatdagi bandlik,imtihonlarga tayyorlanish,"Ozod ofetserlar" tashkiloti ishlari tufayli uning bo'sh vaqti yo'q edi.Uning Akademiyadagi ofetser hamkasblari kungilochar klublarda vaqtichog'lik qilayotgan bir vaqtda u umuman boshqa ish bilan qiziqdi.U faqat doim bitta narsani –o'z Vatani mustaqilligi haqida o'ylardi.

Bu paytda tog'asinikida yashagan yillar tanishgan Abdul Hamid Xamid bilan yana ko'rishadi va uning qizi Taxiya uylanishga qaror qiladi.Manshiyat al - Bakriddin bilan yashay boshlaydi.1945-yilda uning birinchi qizi Guda,keyinchalik ikkinchi qizi Muna tug'iladi.Undan so'ng o'g'li Xolid,keyinchalik Abdulhamid tug'ilgan.Eng kichkina o'g'li Abdul Hakim 1955-yilda tug'iladi.¹⁰

Oila kengayishi bilan u haqida qayg'urish ham kengayib bordi.Biroq Taxiya o'z turmush o'rtog'I uchun osoyishta muhit yaratishga urindi.Aynan Jamol uchun bu kerak edi.U tundan to tongacha "Ozod ofetserlar" a'zolari bilan birga bo'lib, bu tashkilotning keyingi istiqboli haqida nima ish kerak bo'lsa o'shani amalga oshirishga urindi.Inglizlarning Misrdan chiqib ketishi uchun yig'lmaganligi armiyada norozilkni kuchaytiradi.Shunga qaramasdan urush nihoyasiga yetdi.Inglizlar tomonidan Germaniyaga mahfiy habar yuborishda ayblangan Anvar Sadat qamoqdan chiqqan bo'lsada, politsiya nazorati ostida yurdi.

Nosir tashkilotni ikki guruhga bo'ldi.Ulardan biri uning nazorati ostida qolgan bo'lsa,boshqa guruhni Anvar Sadatga berdi.U ham bevosita Nosirga bo'ysunardi Ikkala guruh bir-biridan mustaqil ishlasi kerak edi.

¹⁰ И. П. Беляев, Е. М. Примаков. Египет: время президента Насера. М., 1981, стр-38

Nosir butun tashkilotni faoliyatini qulay boshqarish maqsadida uni beshta qismga bo'ldi: iqtisodiyot, tashviqot, xavfsizlik, shaxsiy kurash va terror qismlarga bo'ldi. Iqtisodiyot bo'limi tashkilotning muhim masalalari bilan shug'ullanardi. "Shaxsiy kurash" bo'limi razvedka ma'lumotlarini amalgam oshirgan. Xavfsizlik bo'limi yangi ofetserlarni qabul qilish bilan shug'ullangan. Tashviqotchilar varaqa chiqarganlar, terror amalda harakatsiz qoldi. Nosir terror tufayli maqsadga erishib bo'lmasligini tushunardi. Ozod ofetserlarning harbiy boshlang'ich bo'limlari uch, besh kishidan iborat bo'lgan. 1952-yil inqilob arafasida tashkilotga mingga yaqin a'zo birlashtirildi. Ulardan faqat uchyuztasi faol a'zolar bo'lgan. Har bir "Ozod ofetser" har oylik a'zolik badallarini to'laganlar. Bu pullarga Nosir bomba tayyorlash bo'yicha maxsus ustaxonalar tuzadi.

"Ozod ofetserlar" tashkilotiga kimlar a'zo bo'lgan?

1. Abdulhakim Amir 1919-yil Al-Miniya guberniyasida tug'ilgan. 1938-yilda Misr harbiy akademiyasini tugatgan. "Ozod ofetsirlar" tashkilotiga kirmasdan avval "Musulmon birodarlari" partiyasiga mansub bo'lgan.
2. Abdel Latif al-Bog'dodiy 1917-yilda Dekagliya guberniyasida tavallud topgan. 1938-yilda Misr harbiy Akademiyasini tugatgan. 1941-1942-yillarda inglizlarga qarshi qo'paruvchilik harakatiga qatnashgan.
3. Kamoliddin Husayin 1921-yilda Banxa shaharchasida tug'ilgan. 1939-yilda harbiy akademiya tugatgan. "Musulmon birodarlari" tashkilotining a'zosi bo'lgan.
4. Hasan Ibrohim 1917-yilda Iskandariyada tug'ilgan. 1939-yilda Misr harbiy akademiyasini tugatgan. "Misr al-Fatat" milliy partiyasining a'zosi bo'lgan.
5. Zakariyo Mohiiddin 1918-yilda Kafr ash-Shukr okrugida tug'ilgan. 1938-yilda Misr harbiy akademiyasini tugatgan.
6. Xolid Mohiiddin 1922-yilda Kafr ash-Shukr okrugida tug'ilgan. 1940-yilda Misr harbiy akademiyasini tugatgan.

7. Muhammad Najib 1901-yilda Xartumda tug'ilgan. 1917-yilda Misr harbiy akademiyasini, 1939-yilda Shtab kollijini tugatgan.
8. Anvar Sadat 1918-yilda Kalyubiya gubirniyasida tug'ilgan. 1938-yilda Misr harbiy akademiyasini tugatgan. "Ozod ofetserlar" tashkelotiga kirmasdan oldin, "Misr al-Fatat" va "Musulmon birodarlari" ga yaqin bo'lgan. U ikkinchi jahon urishi davrida Misrdagi ingliz qo'shinlari joylashuvi haqidagi ma'lumotlarni Rommenga yuborish uchun nemis agenti qilib tanlangan. Shu sababli inglizlar uni qamoqqa olishgan.
9. Kamol Salim 1918-yilda Sudanda tavallud topgan. 1938-yilda Misr harbiy akademiyasini tugatgan. U Misr satsialistik partiyasi a'zosi bo'lgan.
10. Saloh Salim 1918-yilda Sudanda tug'ilgan. 1938-yilda Misr harbiy Akademiyasini, 1948-yilda Shtab kollijini tugatgan.
11. Husayn Shafi 1918-yilda Panta shaharchasida tug'ilgan. 1938-yilda Misr harbiy Akademiyasini tugatgan. 1958-yilda Shtab kollijini tugatgan.
12. Ali Sabri Misr HHK razvetkasiga boshchilik qilgan. Bu yetakchi tarkibning asosiy qismini o'rta hol dehqonlardan chiqqan ofetserlar tashkil etgan.¹¹

Bu yetakchi tarkibning asosiy miqdorini o'rta hol dehqonlardan chiqqan ofetserlar tashkil etgan. Ular hech qanday mulkka, hech qanday boshqa yerlarga ega emasdilar. Ularning hech biri Misr burjuaziyasi bilan bog'lanmagan edi. Faqat Ali Sabri yirik davlat amaldorining o'g'li bo'lib, uning tog'asi posho bo'lgan. "Ozod ofetserlar" tashkelotini yetakchi yadrosiga kirganlar dastlabki paytlarda shaxsiy do'stlik aloqalari bilan bog'langan. Ularning deyarli hammasi bir yilda harbiy akademiyani tugatganlar. Bu yerda ular tanishib yaqinlashib, bir-birlarini qarashlari bilan tanishganlar. Vaqt ularning maqsadlariga jiddiy o'zgartirishlar kiritdi. 1942-yilda inglizlar Misrdagi Vaft hukumatini qo'pollik bilan majbur qilgan

¹¹ А Хамруш Революция 23 июля 1952г в Египте М 1984 стр-102

vaqtida qirol Foruq bunga qarshilik ko'rsatishda yosh ofetsirlarga tayandi. Shunda ular inglizlarga qarshi monarx himoyachisi bo'lib chiqdilar. Mamlakatdagi ahvol yildan-yilga keskinlashib bordi. Qoxirada ingliz amaldorlariga nisbatan qo'paruvchilik harakatlari avj oldi. Bu terroristik aktlarni tashkillashtirishda asosiy rolni "Musulmon birodarlari" mutassib tashkeloti o'ynadi. Ular bilan "Ozod ofetsirlar" ning bir qismi bog'langan edi. Ular qirolni islom qoidalarini buzishda ayiblashdi. Sadat o'zining "Nildagi inqlob" kitobida bir marta Nosirga "Musulmon birodarlari" uchun xos bo'lgan qurolli terroristik usullarni qo'llashni maslaxat berganligini eslatib o'tadilar. Nosir bonga rozi bo'lmaydi va "Musulmon birodarlari" bilan hamkorlikka qarshi norozilik bildirdi.

1946-yildan boshlab Misrda ish tashlashlar to'xtamadi. Ularning ko'pchiligini ishchilar, xizmatchilar, talabalar uyushtirdilar. Ular ingliz qo'shinlarini chiqib ketishini talab qildi. Inglizlar va qirol Foruq mamlakatdagi voqealarning xavfli ko'rinish olayotganini ko'rgach, xukumatni Sidqi-poshoga topshirishga qaror qilishdi. Lekin mamlakatdagi ahvol o'zgarishsiz qoldi. J.A.Nosir voqialar rivojini sabrsizlik bilan kutayotgan bir paytda arab-isroil urushi inqrozi bishlanib ketdi. Xizmat burchi tufayli Nosir 1948-1949-yillardagi Falastin urushida qatnashdi. 1948-yil 15-mayida Misr armiyasi Falastin yerlariga kirdi. Falastin urushi davrida Misr ofetserlari va saldatlari haddan ortiq og'ir sharoitlarda juda kam qahramonliklar ko'rsatdi. Ko'plab iqtidorli ofetsirlar jasurona o'lim topdi.

Oktyabr oyida sionistlar hujum boshlab, 16-oktyabrda El-Fallujni o'rab oldilar. Himoyachilar 130 kunlik blokada bardosh berdilar. 1949-yil 24-fevralda Rodos orolidagi muzokaralar natijasida yarashuv haqidagi bitim imzolanmadi.¹² O'rab olingan qo'shin qo'mondonlaridan biri El-Falluj blokadasini yorib o'tish uchun reja taklif qildi. Buning uchun garnizonning salmoqli qismini qurbon berish talab etilardi. Bu reja qamalga olingan

¹² И. П. Беляев, Е. М. Примаков. Египет: время президента Насера. М., 1981, стр-45

garnizonning shtab ofetsiri Nosir ko'rsatmasi bilan rad qilindi. Nosir Ei-Fallujda joylashgan Misr qo'shinlarini Rodos muzokaralaridagi Misr vakillari qo'lida siyosiy bosim omili bi'lib xizmat qilishini o'yladi. Bu Nosirning siyosiy ziyrakligini nomoyon etganligidan dalolat beradi.

Misrdagi reaksiyon doiralar urushdan o'z maqsadlarida foydalandilar. Konzlagerlar va qamoqxonalar imperializmga inqlobiy qarshilk yo'lidagi qamoqqa olinganlar bilan to'ldi va xalq ommasi kurashi zo'rlik bilan bostirildi.

“Musulmon birodarlari” assatsiatsiyasi urushdan o'z maxfiy harbiylashtirilgan apparatini mustahkamlash uchun foydalandilar. Aniqrog'i ularni a'zolarinig bir qismi urushda ishtirok etib ulardan ko'pchiligi Falastin yerlarida halok bo'ldilar. Urush sharoitida assatsatsiya terroristik faoliyatini avj oldirdilar. Bomba va portlovchi moddalardan foydalanib, “Musulmon birodarlaari” terroristik va qo'paruvchilik aktlar seryasini sodir etdilar. Yahudiylarga tegishli magazinlarni portlatdilar. 1948-yilda Qoxira jinoiy sudi raisi Hamid al-Xazindor o'ldirildi. 4-dekabrda esa Meditsina fakulteti binosiga bomba qo'yilib, Qoxira shahar politsiyasi boshig'i Salim Zakiy o'ldirildi. Bu hukumatni- “Musulmon birodarlari” assatsatssiyasini tarqatib yuborish haqida e'lon chiqarishga majbur bo'ldi. Hukumatni bu qaroriga javoban 1948-yil 28-dekabrda “Musulmon birodarlar” ichki ishlar Vazirligi organiga Maxmud Faxmi Nukrash-poshoni o'ldirdilar, 1949-yil 13-yanvarda appelatsion sud binosini portlatib yuborishga harakat qildi.¹³

Misr bosh vazir lavozimiga Ibrohim Abdul Hadi tayinlangandan so'ng darhol hukumat terror va zo'ravonlik kampaniyasini boshladi. Ommaviy qamoqqa olishlar vaqtida qator ofetsirlar azob tortdilar. Bu voqealar bilan bog'liqlikda Ibrohim Abdul Xodi Podpalkovnik Nosirni uchrashuvga taklif etdi, shu qatorda general shtab boshlig'i Osmon al Maxdi ham ishtirok etdi.

¹³ И.А.аш-Шафии.Развитие национально-освободительного движения в Египте(1882-1956).М.,1961,стр-130

U “Musulmon birodarchi”lar bilan hech qanday aloqaga ega bo’lmasligi va hech qanday faoliyat olib bormasligini ta’kidladi.

Hukumat tomonidan qattiq qatag’onlarga duchor qilingan “Musurmon birodarlari”dan ofetserlarni HHX podpolkovnigi Abdul Moneym Abdul Rauf qo’l ostidagi harbiy tashkilotga jo’natib yubordilar.

Uch yo’nalish doirasida armiya doirasida, armiyada siyosiy faollikning zaiflashuvi ofetserlarni sarosimaga solib qo’ymadi, ularning kuchlarini parchalay olmadi. Amalda ish aksiga o’zgardi. Falastin urushi mag’lubiyatidan so’ng ofetserlar siyosatni yaxshi egalladi chunki buni bilmasliklari ham mumkin emas edi. Har bir qo’shin tarkibida bunday ofetserlar mavjud edi. Vatanparvarlik kayfiyatidagi ofetserlar o’zagini falastin urushi ishtirokchilari tashkil etgan. Turli siyosiy qarashlardagi ofetserlarning yig’ish ishida bosh rolni podpolkovnik Nosirni shaxsan o’zi o’ynadi. Bu ishni albatta chegaralangan miqyosda Falastin urushigacha bo’lgan davrlarda boshlangan edi.¹⁴

¹⁴ А. Агарышев Гамаль Абдель Насер. М., 1975. стр-40

1.2.Nosir 23 iyul inqilobining yetakchisi.

1949-yil oxirida urush tugagandan so'ng, Jamol Abdul Nosir bo'lajak ofetserlar tashkilotining Ta'sis qo'mitasini yig'di. Unga besh kishi: Jamol Abdul Nosir, Xasan Ibrohim, Holid Mohiyiddin, Kamoliddin Husayin va Abdul Moneyem Abdul Rauf kirdilar. 1950-yil boshlarida Ta'sis qo'mitasiga yana Saloh Salim, Abdulatif Bag'dodiy, Abdulhakim Amir, Anvar Sadat va Jamol Salimlar kirdilar. O'sha vaqtdayoq Nosir tashkilotning Ta'sis qo'mitasi raisi etib saylandi.¹⁵ 1950-yil fevralda "Ozod ofetserlar" imzosi ostida birinchi varaqa chiqdi. "Ozod ofetserlar" tashkiloti armiyadan tashqari siyosiy kuchlardan mustaqil bo'lgan va eski tashkilotlardan aloqasini uzmagun mustaqil tashkilot edi. Ularning ba'zi a'zolari boshqa tashkilotlardan qolib qo'shilgan edi. Kamoliddin Husayin "Musurmon birodarlari" bilan yaxshi munosabatlarini saqladi. (Biroq asotsatsiyasi a'zosi bo'lmagan) Holid Mohiyiddin XADET a'zosi hisoblangan. Anvar sadat qator saroy arboblari bilan bog'langan, Jamol Abdul Nosir turli siyosiy yo'nalishdagi kuchlar bilan faol aloqa bog'ladi. Jamol Abdul Nosir Muhammad Najibni Falastin urushi davrida Abdul Hakim Amir orqali tanishgan edi. Tashkilotning shakillanish davrida Muhammad Najib uning majlislarida qatnashmadi. Buning sababi tashkilotga shubha bilan qarashi edi. Binobarin "Ozod ofetserlar" bu haqida Muhammad Najib bilan aloqada bo'lib tashkilot ishlarini tashkiliy emas, balki shaxsiy asosda amalga oshirishga shartlashib oldilar.

"Ozod ofetserlar" varaqalari biri–ketin chiqa boshladi. Birinchi varaqani Jamol Abdul Nosir va Holid Moyiddinlar yozdi. Shavki Aziz nomi ostidagi fuqoro uni chop ettirdi. So'ngra 1952-yil 26 yanvar yongi'nidan so'ng varaqa chop etish va tarqatish apparati UADET qo'lidan "Ozod ofetserlar" qo'liga o'tdi. "Ozod ofetserlar" nomi dastlab armiyada yashirincha aytilgan bo'lsa, keyinchalik u oshkor aytila boshlandi. Yangi tashkil topgan tashkilotning mavjudligi haqida xatto harbiy kontrarazvedka va siyosiy politsiya ham bilardi. Biroq xavfsizlik organlarida xuddi

¹⁵ А. Хамруш Революция 23 июля 1952г в Египте М1984 стр-110

armiyadagidek ichki ishlar vazirligida “Ozod ofetserlar” a’zolari ozchilikni tashkil etar edi. Harbiy vazirlikning razvedka bo’limida hammasi bo’lib 15ta ofetser “ozod ofetserlar” a’zosi edi. Masalan, malumot xizmati boshlig’I Abdul Moneyem Naggar inqilobdan so’ng Misrning Fransiya va Iroqdagi elchisi bo’lgan uning yordamchisi Sadaddin Tafi, Muhammad Najibning harbiy kotibi bo’lgan. Shu sababli “ozod ofetserlar” tashkilotidan hech kim qamoqqa olinmagan, aksincha ularning soni ko’payib, nufuzi ortib borgan

Vafd kabeniti siyosatida ularning “ozod oferserlar”ga qarshi xusumati bo’lmagan. Nosir “musulmon birodarlari” tashkilotidan farqli o’laroq Vafd hukumatini himoya qilgan. Nosir tashkilot raisi sifatida uning istiqbolli kelajagini taminlash rejalarini o’ylay boshladi.

Qohira yong’ini bilan bog’liq voqea “Ozod ofetserlar”ga kuchli ta’sir ko’rsatdi. Ancha radikal kayfiyatga ega bo’lgan “Ozod ofetserlar” a’zolari :masalan Abdulatif Bag’dodiy bunday qulay imkoniyatdan mamlakatda o’zgarishlar yasash uchun foydalanishni ilgari surdi. Boshqalar esa bu voqea ustida “Ozod ofetserlar” o’z oldiga qo’yilgan maqsadni o’ylashga majbur bo’ldilar. Bu vaqtda ularning tashkiloti dastur va nizomga ega bo’lmagan. Shunday qilib tashkilotning dasturiga ehtiyoji tufayli Ahmed Fuod va Holid Mohiyiddin bu dasturni ishlab chiqdilar .

Lekin tashkilotning nizomiga tegishli emas edi. Bu dastur inqilobning olti prinsipi ko’rinishida shakillantirildi: mustamlakachilikning va uning misrlik sotqin hamkorlarini yo’q qilish; feodal tizimni yo’qotish; kapetalistik monopoliyalar va ularning siyosiy zo’ravonligini yo’qotish; ijtimoiy adolat o’rnatish; kuchli milliy armiya tuzish; mamlakatda haqiqiy demokratik tuzumni o’rnatish; “Ozod ofetserlar” tashkilotining muhim ahamiyati u tashviqotlarini varaqlar orqali muntazam chiqarib turganligi bo’ldi. Uning chop etish va tarqatish ishlari bilan Abdurahmon Annan, Hamdu Ubayd (keyinchalik harbiy boshqaruv vaziri) va Holid Mohiyiddin shug’ullandi. “Ozod ofetserlar” varaqalari ilg’or vatanparvarlik ruhiga ega bo’lib, Vashingtonning Misr siyosati uchun rejalashtirilgan yo’nalishiga to’g’ridan-to’g’ri, qarama –qarshi holatda bo’lgan. “Ozod ofetserlar” varaqalari qirolni o’z shaxsiy qo’riqlovini kuchaytirishga majbur bo’ldi. “Armiya tarkibida inqilobiy

harakatlarga boshchilik qilayotgan” Muhammad Najibni qamoqqa olish xavfi kuchaydi. Bu “Ozod ofetserlarni” ehtiyotkorlik chegaralarini ko’rishga majbur qildi. Bu vaqtda Qohirada va El-Arish okruglarida yetakchi qo’mitalar tuzilib, armiyaning yetakchi kuchlari to’plangan edi. Qohira qo’mitasiga Jamol Abdul Nosir, Holid Mohiyiddin, Husain ash Shafi, Zakario Mohiyiddin, Majid Xasaniy va Amin Shokir kirdi. El –Arish qo’mitasiga Yusuf Siddiq, Abdulhakim Amir, Saloh Salim va Jamol Salim kirdi. O’sha vaqtning o’zidayoq “Ozod ofetserlar” tashkiloti Boshqaruv qo’mitasi Abdul Moneyim Abdul Raufni “Musulmon birodarlari bilan aloqasi uchun o’z tarkibidan chiqarish haqida qaror qildi. Shu bilan birga “Ozod ofetserlar” Misr siyosiy kuchlari va tashkilotlari bilan aloqalarni to’xtatmadi. Qohiradagi yong’in Amerika va Angliyaning bu regionda faol harakat olib borishiga xizmat qildi. Ular bo’lajak inqilobdan xavfsirab qoldilar.¹⁶

1952-yil 17-iyulda qirol Faruq ofetserlar kaubining saylangan boshqaruv kengashini tarqatish haqida buyruq berdi. Qirol Firoq Ofitserlar klubining saylangan boshqaruv kengashini tarqatish haqida buyruq berdi va Qohira garnizoni general mayori Ali Najib boshchiligida vaqtinchalik kengash tayinlashga buyruq berdi. “Ozod ofitserlar” bu narsani tez hal qilishga kirishdi. Gap Muhammad Najib tasdiqlagan uch variant togrisida kechdi: 1-Qirolga norozilik telegrammasini yuborish. 2- harbiy kuchlar klubini egallash. 3-Oliyofitserlarni yigish va qamoqqa olish va qirolga o’zshartlarini bayon qilish. Yana siyosiy qotilliklar metodi haqida masala ko’tarildi. XXXK “ozod ofitserlar” tashabbusi bilan saroy ayonlari va qator siyosiy arboblarni o’ldirish taklif etildi. Vaziyat tez o’zgardi va saroy bilan “Ozod ofitserlar” o’rtasida to’qnashuv daqiqama-daqiqa kutila boshlandi. 1952-yil 2-iyulda yana Najib al Unloliy istefosidan so’ng o’z kabinetini shakllantirgan Husayn Sirri M. Najibni harbiy vazir etib tayinlashni taklif etdi, biroq qirol bu taklifni qat’iy rad etdi. Bu davrda mamlakat ichida bo’lganidek, tashqarida ham Misr uchun “aqilli despotik” boshqaruvchi kerakligi aytila boshlandi.¹⁷

¹⁶ Б.Н.Гашев. Государственный сектор в экономике Арабской Республики Египет(1952-1972). М.,1978, стр-410

¹⁷ А. Агарышев Гамаль Абдель Насер. М., 1975. стр-46

18-iyul kuni M.Najib ichki ishlar vaziri Muhammad Hashim bilan uchrashuv o'tkazdi. M.Hashim undan armiya ofitserlari ichidagi norozilikning kelib chiqish sabablarini bilishga qiziqdi va agar buni tushuntirib bermasa M.Najibning harbiy vazir etib tayinlash mumkin emasligini aytadi. M.Najib bu taklifni rad etadi. Bu uchrashuvdan so'ng M. Najib J.A.Nosir va A.X. Amirni taklif etib uning ichki ishlar vaziri bilan uchrashuvdagi malumotlarni ularga yetkazdi. U J. A. Nosirni har qanday vaqtda ularga qarshi choralar ko'rishi haqida ogohlantirdi. Aynan o'sha kuni to'ntarishni amalga oshirishga qaror qilindi. Biroq uni qanday yo'l bilan – terroristik aktlar yoki qamoqqa olishlar bilan amalga oshirish noaniq edi.

1952-yil 19-iyul “Ozod ofitserlar” tashkilotini Boshqaruv qo'mitasi Muhammad Najibning uchrashuvi bilan bog'liqlikdagi taklif qilingan qarorlarni muhokama qilish uchun yig'ildilar. Terroristik aktlar g'oyasi uning ommaviy amalga oshirilishi ochiqchasiga qiyinchilik tug'dirishi sababli rad etildi. Shunda to'ntarish g'oyasi vujudga keldi. Operatsiya rejasi Zakariyo Mohi addinga yuklandi. Keyingi ikki kecha-kunduz davomida “Ozod ofitserlar” rahbarlari majlisi to'xtovsiz davom etdi. Operatsiya rejasi tayyar bo'lgan, chiqish kuni va soati belgilash qolgan edi.

Qirolning ofitserlar klubning boshqaruv kengashini tarqatishi voqiyalari rivojini tezlashtirdi. Boshqaruv qumitasi chiqish sanasini 5-avgustga belgiladi. Bu sana ikki mulahaza bo'yicha tanlangan bo'lib, birinchidan bu vaqtda Qohiradagi mexanizatsiyalashtirilgan bataloni to'liq tarkibiga qayta joylashtirishni mo'ljallagan bo'lib, “Ozod ofitserlar”ning zarbasini kuchaytirardi. Ammo Najibning Muhammad Hoshim bilan uchrashuvidan so'ng Nosir va Hakim Amir muddatning to'g'ri belgilanmaganligi va xavfliligi aniq bo'ldi. Shunday qilib chiqish 48 soat davomida jadallashtirilishga qaror qilindi. 19-iyulda chiqish 21-iyuldan 22-iyulga o'tar kechasiga mo'ljallandi. Buning uchun operatsiya rejalari juda puxtalik bilan tuzildi. 22-iyul kuni Xolid Moxiaddin kvarterasida Zakariyo Moxiaddin operatsiya rejasini o'qib berdi. Chiqish muddati bir sutkaligiga qaramasdan, ish anglashmovchiliklarsiz o'tmadi.

Anvar Sadat 22-iyulda Rafaxdan Qoxiraga kelganida aynan shu kecha chiqish uyushtirilishini bilmasdi. El-Arish okrugida, keyin Suvaysh kanali okrugida chiqish haqida faqat uning muvaffaqiyatli amalga oshirilgandan so'ng xabar topdilar. Abdulatif Bog'dodiy ma'lumoti bo'yicha operatsiya rejasining so'nggi muhokamasiga undagi imkoniyatlar 1:10 bir deb boholandi, biroq "Ozod ofetsirlar" jasurona tавvakal qildilar. Operatsiya "Nasr" - ("G'alaba") kodli deb nomlandi.¹⁸ "soat nol" yarim kechaga mo'ljallandi. Soat o'nlar atrofida general mayor Husayn Farid genshtabda turli qo'shin qo'mondonlari va Qoxirada joylashgan harbiy garnizonlar qo'mondonlarini majlisga chaqiradi. Majlisga faqat general- mayor Muhammad Najib taklif qilinmaydi. U majlis haqida ukasi Ali Najibdan ma'lumot olgach, Abdul Hakim Amirga shaxsan o'z xabarini yuboradi va ular genshtab binosidan chiqayotganda majlis ishtirokchilarini qirg'inlarni oldini olish uchun qamoqqa olishni maslahat beradi. Abdul Hakim Amir darhol Nosir bilan bog'landi. Ular har ikkalasi ham Qoxirada harakat qiladigan qismlarga bevosita munosabatga ega bo'lmagan: A.H. Amir El Arishda xizmat qilsa, J.A.Nosir shtab kolejida o'qituvchi edi. "Ozod ofetsirlar"ning boshqa kuchlari ham tarqoq holda edi. Vaziyat jiddiy tus oldi. Ayni shu vaziyatda ularning joniga podpolkovnik Yusuf Siddiq oro kirdi. Uning ixtiyorida bitta batalyon bor edi. Ayni shu kechaning o'zida bir necha general asirga olindi. Ularning oldida general shtab-mayori Husayn Farid general mayor Hamdi Xayboni qamoqqa olinish uchun turardi. Ular ham qamoqqa olingach, general shtab tamoman qo'lga olindi. El Mazedada artilleryachilar Qoxira garnizoni nachalnigi general-mayor Ali Nojibni qamoqqa oldilar. El -Mazedagi vaziyatni to'liq "Ozod ofetsirlar" artilleriyachilari qo'lga oldilar. Butun harbiy qismlarda muvaffaqiyatli tarzda ish olib borildi. Bu tarixiy tundagi rejaga muvoffiq M. Najib qo'shinlar harakati tugaguncha o'z uyida qolishi, keyinchalik kelib genshtabda qo'mondonlikni o'ziga olishi belgilangan edi. Qubrul Qubbadagi

¹⁸ Б.Н.Гашев. Государственный сектор в экономике Арабской Республики Египет(1952-1972). М.,1978, стр-415

operatsiya muvaffaqiyatli yakunlangach, u Qoxiraga yetib keldi. Endigi vazifa Iskandariyada joylashgan qirol gvardiyasi, harbiy kuchlar qo'mondonlari va yangi kabenitni (Najib al Xiloliy boshchiligida) qo'lga olish qolgan edi. Bosh vazir Najib al Xiloliy Muhammad Najib bilan telefon orqali bog'lanib unga Iskandariyaga kelishini taklif etdi, biroq M. Najib Qoxiradan ketishi mumkin emasligini aytadi. Shunda saroy ko'rsatmasi bo'yicha u bilan Qoxirada uchrashish uchun samalyotda Mortoda al Maraji keladi. M. Najib uni Bosh qo'mondonlik binosida uchrashishni taklif qiladi, biroq al Maraji undan shubhalanadi. U Iskandariyaga qaytadi va iste'fa berishga taraddudlanadi. Shunday qilib, Najib al Xiloliy kabeniti iste'foga chiqishga majbur bo'ldi.¹⁹ 23-iyul chiqishi g'alaba qildi. Armiya qo'mondonligi o'rta ofetsirlar qo'liga o'tdi. Hokimiyatdan eski amaldorlar tarkibi siqib chiqariladi. Hokimiyatga yangi avlod vakillari keldi. Agar Muhammad Najibni 52 yoshda deb hisoblamasa "Ozod ofetsirlar" boshqaruv qumitasi raisi Jamol Abdul Nosir bu vaqtda 35 yoshni ham qoralamagan edi. Bu inqlobning boshqa inqloblardan masalan, Iroq va Suriyadagi ro'y bergan inqloblardan farqi, bu inqlobni Misrda yuqori lavozimda bo'lmagan ofetsirlar sodir etishdi. Bu generallar to'ntarishi bo'lmay, bu chiqish o'rta va mayda ofetsirlar chiqishi bo'ldi. "Ozod ofetsirlar" chiqishining g'alabasi hatto uning ishtirokchilari uchun ham kutulmagan voqia bo'ldi. Bu harakatni hamma qullab-quvvatladi. O'sha kuni ertalab A.Sadat Qo'mondonlar kengashi tayyorlagan inqlob manifestini xalqqa radio orqali e'lon qildi. Nojib al Xiloliy Muhammad Najibga Iskandariyadan telefon qilganida, u Najib al Xiloliyga qo'ydagi talablarni bajarishni aytdi:

1). Ali Maxir kabenitini shakillantirishga ko'rsatma berish. 2). Muhammad Najibni harbiy kuchlar oliy qo'mondoni etib tayinlash. 3). Karim Sabit, Ilyos Endiraus, Muhammad Hasan, Xilmi Husayn, Antuan Belli va Yusuf

¹⁹ И. П. Беляев, Е. М. Примаков. Египет: время президента Насера. М., 1981, стр-52

Rashedni qirol a'yonligidan chetlatish.²⁰ Shundan so'ng 24-iyul kuni ertalab Ali Maxir Aleksandriyaga qirol bilan uchrashish uchun ketdi. Qirol unga kabenitni shakillantirishni topshirdi. M.Najib esa oliy qo'mondon etib tayinlandi. 23-iyuldan 24-iyulga o'tar kechasi Qo'mondonlar kengashi qirolni ag'darish to'g'risida qaror qabul qildi. Bu hatto Ali Moxir uchun ham sirililgicha qoldi. 23-iyul voqeasidan so'ng qirol umidsizlanib qoldi. U bu boshi-berk ko'chadan chiqishga harakat qildi. U buning uchun Buyuk Britaniyaga umid ko'zi bilan qaradi. 23-iyul kuni Qoxira-Suvaysh shossesida shimoldan inglizlar chiqqan holda Qoxirani himoyalash uchun harbiy qismlar harakatlanib turdi.²¹

26-iyul kuni ertalab Iskandariyaga M. Najib yetib keldi. U bilan birgalikda Yusuf Siddiq, Jamol Salim, Anvar Sadat, Xusayn ash-Shafi va Zakariyo Moxiaddinlar tashrif buyuradilar. Rejaga muvofiq, qirolni ag'darish aynan shu kunga belgilangan edi. Bu reja ham Zakariyo Moxiaddin ko'rsatmasi bilan ishlab chiqilgan edi. Bu reja bo'yicha Qoxiradan Aleksandriyaga bronatanklar ishtirokida harbiy parad o'tkazilishi kerak edi. Bundan xavfsiragan Foruq rezidinsiyasidagi Amerka elchisi Sparkega yordam ko'zi bilan qaradi. M.Najib Sparkega Aleksandriyaga qo'shin xavfsizligini ta'minlash uchun kelyapti deb uni tinchlantirdi. M.Najib Ali Maxir orqali qirolga ultimatum yubordi. Ali Moxir qirolida o'z o'g'li Ahmad Fuod II foydasiga taxtdan voz kechishini maslahat berdi. Qirol Foruq uzoq hukumronlik qilgan Muhammad Alilar sulolasining so'nggisi bo'ldi. U taxtdan voz kechdi. Ali Moxir kabeniti ham uzoqqa bormadi. Qo'mondonlar kengashi Ali Moxir bilan dastlabki ikki mojoro-agrar islohat to'g'risidagi masala va saylovlar muddati bo'yicha mojarodan so'ng kabinet tarkibida o'zgarishlar bilan bog'liq uchinchi ziddiyat yuzaga keldi. Premier-ministr

²⁰ А. Хамруш Революция 23 июля 1952г в Египте М1984 стр-110

²¹ Б.Н.Гаше в. Государственный сектор в экономике Арабской Республики Египет(1952-1972). М.,1978, стр-421

lavozimiga yangi nimzod izlash boshlandi. Bu lavozimga as-Senxuri nomzodi ko'rsatildi. Uzoq tortishuvlardan so'ng, premer-ministr lavozimiga Muhammad Najib tayinlandi. Uning o'rinbosari esa Sulaymon Hofiz bo'ldi. Ali Moxir o'zining 48 kunlik boshqaruvidan so'ng iste'foga chiqdi. M. Majib Misr tarixida birinchi harbiylardan chiqqan bosh vazir edi. 1952-yil 2-sentyabrda kabinet shakillantirildi.

II.BOB.NOSIR DAVRIDA MISRNING IJTIMOIIY-IQTISODIY TARAQQIYOTI

(50-60 yillar)

2.1.Nosir hukumatining islohotlari va ularning ijtimoiy-siyosiy oqibatlari.

Inqilobdan so'ngi Misr taraqqiyoti tarixi mamlakatning ilg'or taraqqiyotiga qaysi bosqichlar,qaysi mexanizmlar orqali o'tganligini ko'rsatadi.Hal qiluvchi vazifalarning xarakteri bo'yicha inqilobdan keyingi Misr taraqqiyotini quyidagi davrlarga ajratish mumkin.1952-1956-yillar-feodal elementlarga qarshi kurash va Misrda xorijiy harbiy pozitsiyalarni yo'q qilish uchun kurash davri;1956-1961yillar-Misrda xorijiy kapitalning iqtisodiy pozitsiyasiga zarba berish,davlat kapitalistik sektorini rivojlantirish maqsadiga ega bo'lgan choralar ko'rish davri;1961-1967yillar-feodalizmga qarshi kurashning yangi davrini barobar kuchaytirish bo'yicha kapitalizmga qarshi xususiyat maqsadlariga ega bo'lgan choralarga o'tish.Misr tarixidagi asosiy bosqichi imperialism,sionizm va arab reaksiyasi kirdikorlari kuchayishi ro'y bergan Isroil agressiyasidan keyingi davr.

Yangi tartib o'rnatilgan birinchi kunlardayoq qirol Foruq boshchiligidagi monarxiyaning to'liq yo'q qilinishi bundan keyingi taraqqiyotga yo'l ochib berdi.Keng xalq ommasini"Ozod ofetserlar"ning bu aksiyasini faol qo'llab-quvvatladi.Bu davrda Nosir Inqilobiy Qo'mondonlar Kengashining raisi hisoblansada faqat harbiy doiralarga ma'lum edi.

1952-yil 9-sentyabrda xalqqa tantanali e'lon qilingan agrar islohot to'g'risidagi qonun yangi hukumatning ijtimoiy-iqtisodiy miqyosdagi birinchi qadami bo'ldi. ²² Uning siyosiy,iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari misr antifeodal va mustamlakachilikka qarshi 1952-yilgi milliy ozodlik inqilobining birinchi bosqichi mohiyatini ifodalab,bularning hammasi uning shubhasiz katta yutuqlari,keyinchalik esa mamlakat taraqqiyotida erishilmagan muvaffaqiyatlarining negizini tashkil etadi. Misr xalqi azaldan dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan.Misrda yashab kelgan kishilarning ko'pchiligi bevosita qishloq xo'jaligi bilan bog'langan edilar.Bu vaqtda Misr hududining faqatgina 3%ga yaqini ishlov uchun yaroqli yerlar tashkil

²² Ш. Н. Курдгешвили. Революция 1952 и крах британского господства в Египте, М.,1966, стр-352

etardi.1952-yil inqilob arafasida barcha ishlov berilgan yer maydonlari 2,7mln xususiy mulkdorlarning qo'lida to'plangan.Ularning yarmidan ko'prog'ini 0,5feddan yer tashkil qilardi.Yana 1mln kishi 1feddandan 3feddangacha bo'lgan yerga har bir kishi egalik qilgan.290 ming kishi 3 feddandan 5 feddangacha bo'lgan yerga egalik qilar edi.Shu bilan bir qatorda 61 yer egasi 2000 feddanga,28kishining har biri 1,5mingdan 2ming feddangacha,99 kishining har biri 1ming feddan 1,5 fedgacha,92 kishining har biri 800 feddandan 1ming feddangacha yerga egalik qilardi.Yirik mulkdorlar o'z yerlarini o'zlari uchun foydali bo'lgan ijaraga berish usulidan foydalanardi.ular yerlarni zamonaviy usullardan foydalanib qayta ishlash orqali o'z daromadlarini ko'paytirar edilar.²³ Asosan 1932-yilgacha bo'lgan davrda yirik yer egalari ijarachilarning yollanma mehnati asosida yerlariga paxta yoki g'alla,guruch yoki yuqori daromad olishgan.Lekin uning pomeshchiklarida suistemolchilik chegara bilmasdi.Ijaraning yagona ta'rifi mavjud bo'lmay,suistemolchilikni yanada kuchayishiga yo'l ochib berardi.Ijara munosabatlarining xarakterli jihatlaridan biri,yer egalari o'z yerlarini mayda va juda mayda uchastkalarga bo'lib berishni afzal ko'rishadi.²⁴

Ofitserlar hokimiyatga kelganda Misr qishloqlaridagi ahvolni juda yaxshi bilardilar.Ularning ko'plarining qarindoshlari falloxlar bo'lib,o'rtaxol yashardilar.Soldatlar va serjantlarning ko'pchiligi fallox oilalaridan cgiqqan edi.Bularning xammasi yetarli darajada "Ozod ofitserlar"ning agrar islohoti kurashishiga sabab bo'lgan.Qishloqlarda jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar tarafdorlari o'zlarining sinfiy tarkibi bo'yicha xilma-xil bo'lgan elementlar bo'lgan nafaqat batraklar,yersizlar va kam yerli falloxlar,balki shahar burjuaziyasi bilan bog'langan boy dehqonlar fermer xo'jaligiga o'tib shug'ullanishni xohlar edi.

Agrar islohot yangi hokimiyatga mamlakat ichki siyosatida yarim feodal elementlarning ta'sirini keskin zaiflashtirish uchun kerak edi.Qishloq so'llar singari o'ng siyosiy kuchlarning tashviqotchilik ishlari uchun qulay zamin hisoblanardi.1952-yil 9 sentyabrda agrar islohot to'g'risida qonun e'lon

²³И. П. Беляев, Е. М. Примаков. Египет: время президента Насера. М., 1981, стр-52

²⁴ Ш. Н. Курдгешвили. Революция 1952 и крах британского господства в Египте, М.,1966, стр-355

qilindi. Yirik yer egalari darhol ochiq qarshiligini boshladilar. Ular bu qonunni ularning tabaqaviy imtiyozlariga katta xavf deb tushunardilar.

Qonun bo'yicha yirik yer egaligi bir kishiga 200 feddan yer berishni tasdiqladi. Bu darajadan yuqori yerga egalik qiluvchi kishi o'zlari uchun yana 100 feddanni saqlab qolib, uning oila a'zolari o'rtasida bo'lindi. Ortiqcha yerlarni hukumat davlat foydasiga musodara qildi. Ulardan maxsus fondler tashkil qilib, maxsus tayyorgarlikdan so'ng bu uchastkalar 2dan 5 feddangacha bo'lgan maydonlarga ajratildi. Bu yerlar yerga ega bo'lmagan falloxlarga berildi. Maydon bahosi mamlakatning u yoki bu rayonida mavjud bo'lgan ijara to'lovining o'n hissa oshiq ta'rifiga teng edi. Yerni olgan kishi har feddan uchun 30-yil davomida yiliga o'rtacha 14 Misr funti to'lashi kerak edi. Ortiqcha yerlari musodara qilingan yirik barcha yer egalari davlat 30-yildan so'ng pul to'lashga va'da berdi. Yerni musodara qilish vaqtida hukumat pomeschchiklarga maxsus bonlar taqdim etib, ular har yili bir yilga mo'ljallangan holda chiqarilardi. Pomeschchiklar ortiqcha yerlarini uni musodara qilish, sotish huquqi berildi.²⁵ Qirol oilasiga mansub 175 a'zoga tegishli yerlar tovon to'lovisiz musodara qilishdi. Butun mamlakat uchun yagona ijara ta'rif joriy etildi: yerni ijaraga olgan har bir kishi qishloq xo'jaligi solig'idan 7 barobar ko'p miqdorda ijara haqqi olishga huquqi bor edi. Agar ijara haqqi natural shaklida olinsa u hosilning 50%dan oshib ketmasligi kerak edi. Batraklarga ish haqqining qat'iy minyumi o'rnatilib, unga ko'ra bu ish haqqi erkak kishi uchun kuniga 18 piastr, ayol uchun 10 piastr etib belgilandi. Misr tarixida birinchi marta qishloq xo'jaligi ishchilari kasaba uyushmalarini tuzishga ruxsat berildi. Agrar islohotni o'tkazish uchun maxsus vazirlik tashkil qilindi. Uning nazorati ostida yangi qonun tarqalgan Misr qishloqlarida tashkil topgan davlat birlashmalari harakat qilardi. Hukumat agrar reformani "Yer falloxlarga" shiori ostida amalga oshirishga kirishdi. Shu bilan bog'liqlikda ko'plab muommolar vujudga kelib, falloxlar ularga javob

²⁵ Г. А. Насер. Проблемы египетской революции. Избранные речи и выступления 1952-1970 гг. М., 1979, стр-395

ololmadilar. Masalan, qanday dehqonlar haqida gap ketyapti? Agrar islohot butun qishloqlarni qamrab oladimi?

Agrar islohat to'g'risidagi birinchi qonun mukammallikdan uzoq edi. Islohot ishlov uchun yaroqli barcha yerlarning 1/10 qismiga, barcha yerlarning 560 ming feddan qismigacha tarqardi. Islohotdan so'ng yirik yer egalari mulklarida 2 mln feddan yer qolib ketdi. 1952-yil qonun bo'yicha 1952-yil 23 iyuligacha sotilgan yerlarni musodara qilish man etilgan edi. Shunday holatda agar yer bolalariga, xotiniga yoki nevaralariga sotilgan bo'lsa, qonun chiqqunga qadar tasdiqlanishi lozim edi. Buni Misr iqtisodchisi Adil Guneym "qonundagi eng katta kamchiliklardan biri" deb yozgan edi. Davlat 1953-yil oktyabridan musodara qilingan yerlarni sotishni ta'qiqladi. Biroq bu vaqtga kelib 145 ming feddan yer jumladan taqsimlashga doir yerlarning 1/4 qismiga yaqini sotilib bo'lingan edi. 1953-yildan chiqqan N-494 sonli qonun yerni sotish haqida qonunning buzilgan moddalarini tekshirish uchun maxsus sudni tashkil etishni ko'zda tutdi.²⁶ Biroq qiyinchiliklar tufayli u unga uzoq mavjud bo'lmadi. Shundan so'ng musodara qilingan va taqsimlangan yerlarni nazorat qilish uchun Agrar Islohot Oliy Qo'mitasi tashkil qilindi. Tekshirishlar natijasida amalda ko'plab feodal elementlari qo'lida yirik yer jamg'armalari borligi aniqlandi. Agrar islohat materiallari Oliy Qo'mitaga o'tgandan so'ng, shu asosda yerlarni musodara qilishni amalgam oshirishi kerak edi. Qo'mita departamentdan yerlarni majburiy tartibda yerga qiziquvchi shaxs-yer egasi yordami bilan o'lchashga ko'rsatma oldi, keyinchalik esa mahalliy hokimiyat vakillari bilan ham bu borada faoliyat olib borildi. Shundan so'ng yerlarni qabul qilish va undagi imorat hovli va shunga o'xshash ob'yektlarni ro'yxatga olish uchun qo'mita ta'sis etildi. Pomeschchiklarga da'voni ko'rib chiqish bo'yicha maxsus komissiyalarga musodara o'ldirilgan xarqanday qarorga shikoyat qilish yoki Agrar islohot Oliy Qo'mitasiga shikoyat qilish huquqi berildi. Bu organlarning barchasi pomeschchiklarning shikoyat va da'volarini ko'rib chiqqandan so'ng yerni musodara qilish bo'yicha uzil-kesil qaror

²⁶ А. Агарышев Гамаль Абдель Насер. М., 1975. стр-52

qabul qilinardi.Yer egalari operatsiya yordami bilan islohotlarni amalgam oshirish muddatlarini cho'zish uchun va unga gap berish niyati bilan qilingan nayranglari uchun vaqtdan yutardilar.Apparatning o'zi agrar islohotni shunday ko'rinishda to'ldirgan ediki,unda amalda fallox vakillari hech qanday rol o'ynamasdi.Har holda unda monarxiyalik Misrda davlat lavozimlarida xizmat qilgan va pomeshchiklarning to'gridan-to'g'ri josuslariga aylangan amaldorlarning ortishiga olib keldi.Xarakterli jihati 1961-yilgi agrar islohot to'g'risidagi ikkinchi qonun 1952-yilgi islohotlarni amalgam oshirish bo'yicha qo'mitalarga kirgan bir qator shaxslar,jumladan Oliy Qo'mita qonunchilik komissiyasi rahbarlari uni amalgam oshirishda ishtirok etmadilar.Kamshishedagi qotillik va yerdan foydalanishni ta'qiqlash to'g'risidagi qarordan so'ng saqlanib qolgan feodallarning agrar islohot to'g'risidagi qonunga gap berishi Agrar Islohot Oliy Qo'mitasi huquqiy komissiyasi rahbarlarini undan chiqib ketishga olib keldi.²⁷

1952-yil inqilobi feodallarning davlatning ichki va tashqi siyosatiga siyosiy ta'sirining kamayishiga olib keldi.Biroq inqilobiy kuchlar qishloqlarda hokimiyatning mahalliy apparatini bunday ta'sirdan keskin tozalashga muvaffaq bo'lolmadilar.To'g'rirog'i,bu munosabatlarda kamchiliklar yetarli edi.Xususan,falloxlar yerni olgandan so'ng o'z uchastkasini sotishga majbur bo'lardi.Rasman yer uning uchun qolsada, amalda qarz tufayli bir necha yildan so'ng fallox yeridan mahrum bo'lardi.Biroq bularning barchasiga qaramasdan 1952-yil 9sentyabrdagi qonun shuni ko'rsatdiki,yangi hokimiyat Misr tarixida birinchi marta yirik yer egalari qo'l ko'tardi.1961-yil oxirida 326732 feddan yer,1964-yil oxirida 646775 feddan yer taqsimlandi.²⁸ Misrdagi agrar islohotmamlakatdagi agrar muommolarni uzil-kesil o'rnatish yolidagi oxirgiqadam emas edi. Hokimiyatga kelgan ofitserlar asossiz agrar islohotni yirik yer egalari zarba berishga yo'naltirishga qaratadiki,Misr uchun an'anaviy bo'lgan xususiy mulkchilik "buzilmaslik" qoidasiga zarba berishga intildi.Xarakterli jihati

²⁷ Г. А. Насер. Проблемы египетской революции. Избранные речи и выступления 1952-1970 гг. М., 1979, стр-401

²⁸ И. П. Беляев, Е. М. Примаков. Египет: время президента Насера. М., 1981, стр-56

islohotlar o'tkazish qator boshqa maqsadlar bilan birga qo'shib olib borildi. Qaytadan tuzilgan Misr korxonalari besh yil davomida soliqlardan ozod etildi, keyinchalik esa chetdan olib kelingan asbob-uskunalarga soliq to'lovlaridan ozod etildi.

Bu vaqtda 1952-yilgi agrar islohot shubhasiz Misr qishloqlarida kapitalizm taraqqiyotiga xizmat qildi. Hokimiyat ochiqchasiga boy dehqonlar xo'jaligining kapitalistik formasi rivojini qo'llab-quvvatlay boshladi. Shu bilan bir qatorda fermer xo'jaligi uchun qulay sharoit yaratish imkoniyati paydo bo'ldi.²⁹

Agrar islohot qishloqda ishchi kuchlari bahosini salmoqli o'sishiga olib kelmadi. Batraklar ish haqining qat'iy minimumi kiritilganligiga qaramasdan, u favqulodda pasyishda davom etdi. Bunday quyi ish haqi agrar islohotdan keyin yanada kamayib bordi. Biroq ko'rilgan choralarning muhimligiga qaramasdan hokimiyat 1952-yilgi agrar islohot ko'magi bilan Misrning iqtisodiy taraqqiyotini o'zgartirishga muvaffaq bo'la olmadi. Yirik Misr yer egalariining sanoatdagi mablag'lari yetarlisiz qoldirildi. Ayniqsa mamlakatda amalgam oshirilgan agrar islohot ko'proq siyosiy sohada kuzatildi. Natijada yirik feodallar va monarxiya tarafdorlarining hukmronligiga zil ketdi. Pomeschchiklar uzil-kesil hokimiyatdan chetlashtirilib, undagi ta'siridan mahrum bo'ldi. Shubhasiz 1952-yilgi agrar islohotning ijtimoiy ahamiyati uning siyosiy voqealari bilan birgalikda sodir bo'ldi. Inqilobiy Qo'mondonlik kengashi agrar islohot haqida qonun tayyorlash jaroyonida vafd liderlari bilan muzokaralarni to'xtatmadi. "Vafd" 500 feddanga minimum kiritishni talab qildi. "Vafd" vakillari ko'proq pomeschchiklar qiziqishlarini himoya qilgan.³⁰

1953-yilda Inqilobiy Qo'mondonlik kengashi ikki muhim monarxiyani yo'qotish va barcha eski siyosiy partiyalarni tarqatib yuborishi haqidagi qarorni qabul qildi. Yangi qaror mamlakatdagi pomeschchiklar ta'sirini jiddiy ravishda zaiflashtirdi. 1952-yilgi agrar islohot natijasida hukumat o'z sinfini yirik yer egalariiga qarshi qo'ydi. Bunga javoban 1954-yilda "Musulmon

²⁹ Б. Г. Сейранян Египет в борьбе за независимость 1945-1952, М., 1970, с.169.

³⁰ Б. Г. Сейранян Египет в борьбе за независимость 1945-1952, М., 1970, с.172.

birodarlari”Nosirga suiqasd uyushtirishdi.shu suiqasddan so’ng Misr milliy-ozodlik inqilobining antifeodal tendensiyasi kuchaydi.Yirik yer egalari va tuzum o’rtasidagi chegara kengaygandan kengayib bordi.

Yirik va qisman o’rta burjuaziyaning sanoatda va bank-kredit tizimidagi mulklarini milliyalashtirish jaroyoni nafaqat shahar mehnatkashlari foydasiga ijtimoiy choralarni amalgam oshirishi bilan,balki qishloqlarda pomeschchiklarning pozitsiyasiga hujumning davom etishi bilan birgalikda kechdi.1961-yilda ikkinchi marta yer egaligi maksimumi qisqartirildi.Agar Misrdagi agrar islohot to’g’risidagi birinchi qonun yer mulki maksimumini 200 feddan bilan chegaralangan bo’lsa,1961-yilgi qonun bu maksimumni 2marta 100feddengacha qisqartirdi.

1952-yil qonuni dastlab ijara yerlari o’lchamini chegaralanmagan edi.1959-yilda chiqqan qonun bo’yicha alohida yoki shaxsiy yer bilan birgalikdagi ijar yerlari bir kishiga 200feddandan,bir oilaga esa 300feddandan oshmasligi kerak edi.1961-yil qonuni alohida shaxs yoki oila ijarasi uchun 50feddan yer maksimumini e’lon qildi.Ijara maydonini farqi ijarachi mulkida joylashgan maydon bilan birgalikda 50feddandan oshish kerak emas edi.Misr sharoitlarida bu shubhasiz ilg’or choralardan biri edi.³¹

Tartib olingan yerlar uchun mulkdorlarga kompensatsiya haqidagi muammo tadrijiy rivojlanishni boshidan kechirdi. 1961-yil qonuni bo’yicha kompensatsiya asoslari 1952-yil qonunidagidek qoldirildi:yeti marta oshirilgan yer solig’I musodara qilingan yerlarda joylashgan imoratlar va asbob- uskunalar bilan qo’shib ketdi.Kompensatsiya davlat oplikatsiyalari ko’rinishida 40 yil davomida to’lanadigan bo’ldi. Biroq 1964-yilda yuqorida aytilganidek, pomeschchiklarga kompensatsiya bekor qilindi.³²

Bir vaqtning o’zida dehqonlarning ular orasida taqsimlangan yerlar uchun to’lovi kamaytirildi.1964-yil qonuni bo’yicha uni olgan dehqonlar ushbu

³¹ Елистратова Т.Е. Причины победы революции 1952 года [www.people`shistory.ru/](http://www.people`shistory.ru/), 2005.

³² И. П. Беляев, Е. М. Примаков. Египет: время президента Насера. М., 1981, стр-66

summaning 1/4 qismini 40yil davomida davlatga to'lab borishi kerak edi. Davlat hech qanday prosentlar olmagan, allaqachon to'lab bo'lingan foizlar atalgan summada hisoblangan.

Biroq agrar dasturning barcha ijobiy tomonlari bo'yicha yangi islohot Misr qishloqlarida yarim feodal elementlarning salmoqli iqtisodiy va iqtisodiy va siyosiy pozitsiyasini tugatishga olib kelmadi. "Inqilobning dastlabki tashabbuslari dehqon qiziqishlarida amalga oshirilishiga qaramasdan, bugungu inqilobiy vaziyat rivoji bo'yicha qishloq eng zaif bo'g'indir" deb yozgan edi. 1966-yilda "Al Taliya" jurnali birinchi va ikkinchi agrar islohotlarning qiyosiy yakunlari shuni ko'rsatdiki, alohida shaxslar mulkida joylashgan maksimum yer uchastkalari qisqartirilishidan tashqari Misr qishloqlaridagi yer egaligida boshqa tub siljishlar ro'y bermadi. Agrar islohotlar Misr aholisining favqulodda tez o'sishi sharoitlarida amalga oshirilgan bo'lib, yer uchastkalarining bo'linishining qizg'in jarayonini to'xtata olmadi. Xar holda ikkinchi islohotdan so'ng uchastkalar miqdori 5 feddandan 10 feddangacha o'sdi.³³

Misr qishloqlaridagi haqiqiy holatga siyosiy kurash bilan bog'liq bo'lgan voqealardan kelib chiqqan holda asosan bu yerda ASSning tashkil qilinishi salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mamlakatda 1966-yil bahorida Kamshish qishlog'ida ASS faoli Saloh Husaynning o'ldirilishi bilan bog'liq "Kamshish ishi" mashhur bo'lib ketdi. Agrar islohot o'tkazish bilan bog'liqlikda pomeschiklarning suiste'molchiligi sababli u feodallar terrorining qurboniga aylandi. "Kamshish ishi" keyinchalik boshqa rayonlardagi shunga o'xshash ishlardan so'ng Nosir rahbariyati feodalizm bilan kurash bo'yicha Oliy Qomita tuzdi. Bu qo'mita feodal elementlarining agrar islohot to'g'risidagi qonunga chap berishning ko'p miqdordagi xollarini ko'rib chiqdi va foyda qildi. yer uchastkalarida saqlanib qolgan pomeschiklarning qonunga chap berishi natijasida ularning mulklari xatlandi. Kamshishda ro'y bergan qotillikdan so'ng hukumat ularga qarshi choralar ko'ra boshladi. Biroq bu choralar chegaralangan xarakterga ega bo'lib qishloqlardagi pomeschiklarning iqtisodiy va siyosiy bazasini uzil-kesil putur

³³ А. Агарышев Гамаль Абдель Насер. М., 1975. стр-57

yetkaza olmadi. Misr rahbariyati shubhasiz qishloqlardagi yarim feodal elementlarning pozitsiyasini tuzish uchun jiddiy xavf ekanligini tushunardi. Bu yerda Nosir prezidentligi davrida Misr tuzumining bosh ixtiloflarini yana bir bor aytib o'tish kerak: Inqilobiy shiorlar yuqoridan e'lon qilingan bo'lib xalq ommasining faollashuvi bo'yicha ishlarni mustahkamlashga yetarli emas edi. Qishloqlardagi yarim feodal pomeschchiklarning ta'siri va pozitsiyasi ularni yetarli kuch sifatida ko'p vaqt saqlanib qolishiga sabab bo'ldi.

Iqtisodiy hayotning boshqa jabhalaridam salmoqli ishlar amalga oshirildi. Xususan davlat sektorida muhim o'zgarishlar yuz berib, makra iqtisodiyot va mikra iqtisodiyot sohalarida rivojlanish istiqbollarini o'rganish va muhim islohatlarni amalga oshirish mo'ljallangan.

Inqlobdan so'nggi Misrda dastlab kapitalistik yo'nalishdan darhol boz kechilmadi. Misr milliy ozodlik inqilobiga o'tish davrida yangi milliy demokrarik bosqichg amamlakatda burjuaziya yetarli darajada tez o'sdi va hukumatning o'zi to'liq 1960-yilgacha hukumat milliy va xorijiy kapitalni rag'batlantirish hisobiga milliy iqtisodiyotni yuksaltirishga erishishga urindi. Ba'zi inqilob yo'lboshchilar hatto bu maqsadga erishdilar ham.

1960-yilda faqat yengil sanoat avvalgiday yaxshi natijalar bilan ishladi. Xeluanda barpo etilgan metallurgiya zavodi og'ir sanoatning dastlabki korxonalaridan biri edi.³⁴ Og'ir sanoat korxonalari qurish loyhasi ishlab chiqarila boshlandi. Hukumat turli organlar orqali, shu jumladan milliy qo'mitalar ijtimoiy ishlar vazirligi asosida maxsus qurilish vazirligi va sanoat vazirligi tashkil etildi. Bu orqali sanoatni tubdan rivojlantirish ko'zda tutildi. 1960-yilda ilgari surilgan o'n yillik iqtisodiy dasturning maqsadi mamlakatning milliy daromadini ikki hissa oshirish bo'lib, keng xalq ommasining hayotiy mezonini ba'zasini kengaytirish edi.

Nosir mamlakatdagi kompaniyalarni, firmalarni, korxonalarni, barcha amaldagi bank va sug'urta ishlarini milliylashtirishni ko'zda tutgan qonunlar seryasini ishlab chiqishga ko'rsatma berdi. 1961-yil iyulida 300 ga yaqin sanoat, savdo,

³⁴ А. Хамруш Революция 23 июля 1952г в Египте М1984 стр-214

sug`urta va boshqa kompaniyalarni milliyalashtirish haqida dekritni imzoladi. Milliyalashtirilgan aktivlarning qiymati taxminan 200mln Misr funtiga baholandi. Milliyalashtirish miqyosi barcha vaqtlardan ham kengayib bordi. 1962-yil yanvarida non yopadigan 77 ta xususiy korxonalar milliyalashtirildi. Bir vaqtda un tortish, gurich tozzalash va non pishirish bo`yicha 243 ta xususiy korxona kapitallarida hukumatning 50 foizlik ishtiroki ko`zda tutildi. Agar 1961-yil iyulida amalga oshirilgan milliyalashtirish asosida yirik Misr burjuaziya asosiga dahl qilingan bo`lsa, 1962-yil yanvaridan boshlab milliyalashtirish Misr sanoatining o`rta korxonalariga tarqaldi. Barcha milliyalashtirilgan korxonalar davlat sektoriga kirgizildi. 1963-yilda Nosir yana 900 ga yaqin sanoat, transport qishloq xo`jaligi, savdo kompaniyalarini milliyalashtirish haqida buyruqni imzoladi. Dekritning muhimligi shunda ediki, masalan 15-sonli dekrit xorijliklar egalik qilayotgan 115 ming feddan yer milliyalashtirildi. 38-sonli dekrit esa (1963-yil aprel) 101 ta paxta tozzalash kompaniyasi va paxta eksport qilish bo`yicha 13 ta kompaniyani to`liq milliyalashtirish haqida edi. 1963-yilgacha barcha paxta savdosi, barcha paxtani qayta ishlash korxonalari, barcha vositachi kontoralar, kelib chiqishi misrlik xorijliklar qo`lida bo`lgan Iskandariya portidagi paxta omborlari, umuman barcha paxta savdosi 43 ta davlat nazoratiga olindi. 1963-yil iyunida ilgari yarimi milliyalashtirilgan 5 ta ximiya- farmatsevtika kompaniyasi to`liq milliyalashtirildi. Shu qatorda 10 ta transport va kemasozlik kompaniyalari to`liq milliyalashtirildi. 1963-yil ikkinchi yarimida milliyalashtirish qizg`in pallasiga kirdi. 1963-yil avgustida 229 ta sanoat kompaniyasi, 2 ta savdo fermasi milliyalashtirildi. Bir vaqtning o`zida xususiy shaxslar va kompaniyalar imzolangan barcha shartnomalar tugatildi. 1963-yil oktabr-noyabr oylarida “”Dorul maorif” bosmaxonasi milliyalashtirildi.³⁵

Milliyalashtirish bo`yicha charalar 1964-yilda ham davom etdi. O`sha yilning yanvar-fevralida mehmonxonalar xizmati bo`yicha uchta sanoat kompaniyasi milliyalashtirildi. Bu qaror jiddiy ahamiyatga ega bo`ldi: Nosir rahbariyati xizmat doirasiga hujum qildi. 1964-yil martida shunday mulklarni milliyalashtirish haqida

³⁵ И. П. Беляев, Е. М. Примаков. Египет: время президента Насера. М., 1981, стр-85

dekritlar chiqarildi. Bu milliyashtirish to'g'risidagi barcha dekritlarni shaxsan prezident Nosirning o'zi imzoladi. Nosir Misrda siyosiy kareralarni ishlab chiqishda ustun ta'sirga ega edi. 1961-1962-yillarda mehnatkashlar ahvolini yaxshilashga yo'naltirilgan qator qonunlar chiqarildi. Davlat korxonalarida 1961-yil iyulida yetti soatlik ish kuni kirgizish e'lon qilindi. Ish haqining yangi meniyumi belgilanib, u kuniga 25 plastrga teng edi. Tibbiy xizmatlar uchun to'lovlar va kvartira to'lovlari keskin kamaytirildi. Ishchilar uchun mo'ljallangan "xalq uylari" deb atalgan kooperativ qurulishlar boshlandi. 1961-yil 14-avgustda har bir xususiy va davlat korxonalarida ishchilar va xizmatchilarni ijtimoiy ta'minlash maxsus fandlarini tuzish bo'yicha qonun chiqarildi. 1961-yil 10-oktabrdan nafaqa va ijtimoiy ta'minot bilan bog'liq bo'lgan davlat korxonalari ishchilari va xizmatchilari guruhiga milliyashtirilgan korxonalar ishchi va xizmatchilarini o'tkazish mustahkamlandi. 1961-yil 20-noyabrdak kvartira haqida qonun qabul qilindi. 1962-yilda bepul ta'lim haqida qonun chiqarildi. 1963-yilda ta'lim uchun barcha to'lov ko'rinishlari singari oliy o'quv yurtlarida imtixonlar uchun to'lovlarni bekor qilgan respublika dekreti chiqarildi. Ta'limning barcha turlari bepul bo'lib, aholining barcha qatlamlari uchun ochiq edi. 1962-yil aprelida sanoat vaziri Aziz Sidqi kompaniya va fermalar o'z foydalari hissasidan to'lovni boshlashini e'lon qildi. 1-may rasman mehnatkashlar bayrami deb e'lon qilindi.³⁶

1962-yil iyunida bevosita Nosir ishtirokida tayyorlagan "Milliy harakat xartiyasi" da Misrning tashqi va ichki siyosatining progressiv maqsadlari yoritib berilgan edi. Milliyashtirish to'g'risida qonun chiqqandan so'ng (1961-yil iyul) mamlakatda bir qancha tadbirlar amalga oshirilib, shahar va qishloqlardagi ishchilar uchun ish haqining qat'iy menyumi o'rnatilganidek, bu yerlarda ijtimoiy tashabbuslarning keng dasturi o'tkazildi. Ishchilar, falohlar qishloq xo'jaligi ishchilar hukumat o'tkazgan tashabbuslarda ishtirok etdi. Misrda amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar yirik burjuaziya sinf sifatidatugatilishiga olib keldi.³⁷

³⁶ И.А.аш-Шафии.Развитие национально-освободительного движения в Египте(1882-1956).М.,1961,стр-77

³⁷ И.А.аш-Шафии.Развитие национально-освободительного движения в Египте(1882-1956).М.,1961,стр-79

2.2 Mamlakatdagi ichki siyosiy kurash.

General mayor Muhammad Najibning premier-ministir harbiy vazir va qurolli kuchlar bosh qo'mondoni etib tayinlanishi shundan guvohlik beradiki, 23 iyul chiqishidan so'ng yarim oy davomida harbiy rahbariyat o'z qo'llarida davlat hokimiyatini to'plashni boshladilar. Yangi shakillantirilgan cabinet darxol agrar islohot to'g'risidagi qonunni qabul qildi. Aytish mumkinki, agrar islohot to'g'risidagi qonun qabul qilinishi bilan ichki siyosiy kurashlar davri ham boshlandi. "Ozod ofitserlar" agrar islohot to'g'risidagi qonunni qabul qilib muhim qadamni amalgam oshirdilar. Bu ularning Misrdagi ijtimoiy taraqqiyot muommosi bo'yicha pozitsiyalarini aniqlashtirib berdi va ularga keng xalq madadini ta'minlab berdi.

Mamlakatning siyosiy va ijtimoiy hayotiga ta'siri bo'yicha yengil va ijtimoiy hayotiga ta'siri bo'yicha yengil va ijobiy bo'lgan birinchi to'qnashuv keyingi qadam amalgam oshirilayotganda murakkablashdi. Rahbariyat va partiyalar ichidagi tozalash o'tkazish maqsadida 1953-yil fevralida saylovlar o'tkazish belgilandi. Sulaymon Hofiz shoshilinch tartibda siyosiy partiyalarni qaytadan tuzish haqida qonun loyihasini tayyorladi. Dastlab loyihaga qarshi Abdu Roziq as Sanxuri qat'iy norozilik bildirilib, konstitutsion qoidalariga muvofiq partiya tashkiloti bu partiyaning o'z ishi ekanligini isbotlashga urindi. Partiyalarni qaytadan tuzish haqida qonuni chiqqandan so'ng darxol Muhammad Najib bosh vazir lavozimini egalladi.³⁸ Qonun partiyalarni o'z moliyaviy mablag'lari va banki bo'lishini majburiy qilib qo'ydi. Mavjud partiyalar qonun holati bilan muvofiqlikda o'zini qaytadan tashkil qilishi kerak edi. Bu qonun chiqishi bilan har bir partiyada bosqinchi va qo'poruvchi elementlar faollashib o'zaro nizolar boshlandi. Tozalash o'tkazilishiga chaqiriq partiyalar uchun tuzoqqa aylanib, shaxsiy hisob-kitoblar boshlanib ketdi. Qopqonga birinchi navbatda Vafd tushib qoldi. Ular tozalash o'tkazishga qarshi noroziliklar bildirar

³⁸ Ш. Н. Курдгеашвили. Революция 1952 и крах британского господства в Египте, М., 1966, стр-361

boshladilar. Ular orasida o'tmishda ijtimoiy ishlar vaziri lavozimini egallagan Mahmud Abdulatif ajralib turardi. Asosiy kurash Vafd atrofida kechdi. Vafd o'zining ilg'or dasturlariga qaramasdan tozalash ishlari mobaynida uning pozitsiyasiga putur yetdi. Vafd a'zolari M. Naxxas rahbarligi ostida partiya tuzishga muvaffaq bo'ldilar. Muxolifat 1952-yil 27-sentyabrida o'zining yuqori nuqtasiga yetdi.³⁹ Vafd o'zini qayta tuzish haqida bayonotni ichki ishlar vaziriga bermaslikka qaror chiqardi. Bu vaqt orasida Vafddan uning ta'sirli arboblari Axmad Zevar, Ismoil Sidqi va Ali Maxurlar chiqib ketishdi. Shundan so'ng Vafd o'z kuchini yo'qotdi. Uning qarshiligi uncha uzoqqa bormadi. 1952-yil 8-noyabrda ichki ishlar vaziri Mustafo Naxxosning Vafdning faxriy raisi sifatida tayinlanishiga shikoyat arizasini berdi. Ichki ishlar vaziri 16 ta tashkilot va partiya tuzish haqida xabarnoma oldi. Bu – Vafd “Musulmon birodarlari” partiyalaridan: Saad, Konstitutsion-liberallar, Ishchilar, Ishchilar va dehqonlar, “sotsialistik”, Yangi milliy, Dehqon sotsialistik, “Vafd blok”, Demokratik, Respublikachi, “olloh partiyasi”, uch ayollar partiyasi: “Nil qizi”, “Ayol” va “Ayollar milliy ” partiyasidir. Sulaymon Hofiz harbiylarning mutloq hokimiyatini qurish uchun zamin tayyorlagan qator qonun va aktlarni chiqarishga erishdi. Harbiylar harakati “tozalash” ishlari amalga oshirishga kirishganda asosiy qonunlar bilan birgalikda ikki ko'rinishda – maxsus ma'muriy bu sud komissiyalarini tuzdi. Har bir komissiyaga sudiya boshchilik qilib, uning tarkibiga praxtura vakillari kirdilar.⁴⁰ Har bir sud komissiyasiga oliy sud instansiyasining ikki vakili boshchilik qilardi. Ma'muriy komissiya davlat xizmatchilari faoliyatini tekshirib, ularni ishdan bo'shatish haqida qarorni ko'rib chiqish huquqiga ega edilar. Sud komissiyasi esa vazirliklar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ishlarni har tomonlama ko'rib chiqib, bu ishlarni jinoiy yoki ma'muriy sudlarga jo'natishi kerak edi.

Konstitutsiya haqida suhbatlar doimiy masalaga aylansada, u haqida dastlab jim turdilar. Bu konstitutsiya asosan feodal sinf va yirik burjuaziya sinfining

³⁹ Г. А. Насер. Проблемы египетской революции. Избранные речи и выступления 1952-1970 гг. М., 1979, стр. 405

⁴⁰ И. П. Беляев, Е. М. Примаков. Египет: время президента Насера. М., 1981, стр. 144

qiziqishlariga xizmat qilardi. Shunisi aniqki, 1923-yilgi bu Konstitutsiya o`rta hokimiyatga kerak bo`lmay qoldi. Konstitutsiyani bekor qilish bilan bog`liqlikda saylovlarni kechiktirishga qaror qilindi. 1952-yil 10-dekabrda konstitutsiya bekor qilindi. 1953-yil 13-yanvarda Al-Moxir boshchiligida yangi konstitutsiya loyhasini tayyotlash bo`yicha 50 kishidan iborat komissiya tuzildi. Komissiya tarkibiga to`rtta vafd vakili, ikkta Saad partiyasi vakili, ikkta konstitutsion partiya vakili, ikkta “Vafd bloki” vakili. Uchta milliy partiya va uchta yangi milliy partiya vakili kirdi. Undan tashqari oliy sud organlaridan uchta vakil, uchta harbiy va politsiya xizmatchilari vakillari kirdi. Qolganlari “Mustaqillar” edilar. Konstitutsion komissiya tarkibi aniqlashtirilgandan to`rt kun o`tib, 17-yanvarda harbiy kuchlar qo`mondonining siyosiy partiyalarni tarqatish to`g`risidagi manifesti e`lon qilindi. Unda bu partiyalarning mulklarini musodara qilish ko`zda tutilgan edi. Partiyalar tarqatilishiga qaramasdan xalq Konstitutsiyaning ishlab chiqilishiga va parlament tizimi qayta tiklanishiga ishonardi. Konstitutsion komissiya tarkibidagi “beshlar komissiyasi” (Abdu reziq as-Sanxuri, Makram Ubayd Abdul Raxmon ar-Rafi, Sayid Sabri va Usmon Halil Usmon) davlat tuzumi haqidagi muammoni muhokama qilish uchun tashkil etilgan edi. Ularning so`nggi xulosalar- shunga olib keldiki, davlat tuzumi respublika bo`lishi va buning uchun plebtsiy o`tkazilishiga qaror qilindi.

1953-yil 17-iyunda Nosir “Al Axram” gazetasiga bergan intervyusida “Respublika bo`ladi bunga shak-shubha yo`q”⁴¹ deb aytdi. Bu intervyudan bir kun o`tib Misrda monarxiya tuzumi tugatildi vaqirol Ahmad Fuod II ag`darildi. Misrni 150 yil ag`dargan Mmuhammad Ali sulolasi barham topdi. 1953-yil iyunda Misr respublika deb e`lon qilindi, Muhammad Najib esa Misr Respublikasining birinchi prezidenti bo`ldi.<sup>42</sup> 1953-yil 10-fevralida e`lon qilingan vaqtinchalik konstitutsiya Misr qonunchiligi poydevoriga aylandi.

⁴¹ А. Агарышев “Гамаль Абдель Насер”. М., 1975. стр-166

⁴² Б.Н.Гашев. Государственный сектор в экономике Арабской Республики Египет(1952-1972). М.,1978, стр-328

Najib prezidentlikka saylangach, uning o`rinbosari Nosir etib tayinlandi. 1953-yil 23-iyul inqilobi yetakchilari o`rtasidagi munosabatlar ularning qarashlari bo`yicha keskinlashib bordi. bu bevosita “Musulmon birodarlari” ommaviy tashkiloti bilan bog`liq edi. “Musulmon birodarlari”ning “Ozod ofitserlar” harakati bilan munosabati dastlab mustahkam edi, biroq bu munosabat fojiali tus oldi.

“Musulmon birodarlari” tashkilotini 1928-yilda Ismoiliyada mahalliy o`qituvchi Hasan al-Bann tashkil qilingan edi.<sup>43</sup> Al Bann va uning tarafdorlari islom davlatini tuzishga chorladi. Barcha islom diniga e`tiqod qiluvchilarni birlashtirish panislomizmning muhim shiori edi. Al Bann o`ldirilgandan so`ng, uning rahnamosi Abdul Xolid bo`ldi.

1952-yil inqilobidan so`ng “Musulmon birodarlari” bilan “Ozod ofitserlar” ning yo`llari ayrildi. Garchi 1953-yil 16-yanvarda Misrda barcha siyosiy partiyalar taqiqlangan bo`lsada, biroq “Musulmon birodarlari” jamiyati faoliyati taqiqlanmadi. Shu sababli “birodarlar”ning rahnamosi Ali Xudaybi Misrda islom davlati tuzish haqidagi masala bo`yicha butun mamlakatda referendum o`tkazilishiga chaqirdi. Nosir bu ta`labga qat`iy rad javobini berdi. Shu vaqtdan “Ozod ofitserlar” va “Musulmon birodarlari” o`rtasida ochiq kurash boshlandi. “Musulmon birodarlari” Qohiradagi Britaniya elchisi bilan maxfiy aloqalar o`rnatdi. Tezda “ birodarlar” ikki frontdan- 1954-yil 11-noyabrda Qohira Universitetida studentlar g`alayonini tashkillashtirish hamda Inqilobiy Qo`mondonlik Kengashi a`zolariga qarshi general Najib orqali yangi tuzumga qarshi hujum boshladi. Muhammad Najib o`sha vaqtda xalq orasida keng obro` qozongandi. Nojib ilgari surgan asosiy prensiplari siyosiy partiyalar birinchi navbatda “Vafd” va “Musulmon birodarlari” faoliyatidagi taqiqlarni bekor qilib, an`anaviy parlamentarizmga qaytish bo`lgan. 1954-yil 25-martda Nosirning qisqa vaqtli iste`fosi voqealar rivojini ularning foydasiga hal qila boshladi. Hatto Najib “Birodarlar”ni faol qullab-quvvatlashiga qaramay ular Inqilobiy qo`mondonlik

⁴³ Новейшая история арабских стран (1917-1966) М., 1968 стр. 13

kengashining “diktatorlik” va “antidemokratik” an’alariga qarshi chiqdilar. 1954-yil 26-oktabrida Iskandariyada katta mitingga chiqqan Nosir hayotiga suiqasd qilganlardan biri jinoyat joyida tutib olindi. Qamoqqa olinganlar suiqasdga “Musulmon birodarlari” rahbarlari tayyorlangani haqida guvohlik berdilar. Sud jarayoni natijasida “birodarlar”ning ikki rahbari o’ldirildi, ularning “oliy rahnamosi” Hasan al-Xudaybi umrbod qamoq jazosiga hukm qilindi. Najib “birodarlar” bilan aloqadorlikda ayiblandi. Generalning suiqasd tayyorlashda ishtiroki haqida hech qanday ma’lumot topilmadi. Biroq shu narsa aniq ediki, u “Birodarlar” ta’siri ostida bo’lgan. 1954-yil 14-noyabrda general o’zi egallagan lavozimlaridan ozod etilib, uy qamog’iga mahkum etildi.⁴⁴

Misrdagi ko’plab o’n yilliklar milliy ozodlik uchun kurash bilan kechdi. Inqilobiy qo’mondonlik kengashi o’z oldiga ingliz qo’shinlarini juda qisqa muddatda Misr hududidan chiqarib yuborishga erishishni maqsad qilib qo’ydi. Nafaqat mamlakatdagi mustamlakachilikka qarshi harakatdan balki, o’zaro mustamlakachilik ixtiloflaridan Angliyaning Yaqin Sharqdagi pozitsiyasining zaiflashuvi va AQSh manfaatlarining bu mintaqadagi qiziqishlaridan foydalanib, Nosir va uning atrofida galari Antoni Iden hukumati bilan ingliz qo’shinlarini Suvaysh kanali zonasidan chiqarish maqsadi bilan muzokaralar boshladi. “Ozod ofitserlar” uchun muzokaralarni boshlash muhim ahamiyat kasb etdi. Bungacha ko’pgina vadalariga qaramasdan, Misrdagi hech bir siyosiy partiya bu umummilliy vazifani amalga oshira olmagan edi. “Ozod ofitserlar” bu masala bo’yicha katta muvaffaqiyatga erishdilar. Ingliz qo’shinlarini Misrdan to’liq olib chiqib ketish haqida shartnoma 1954-yil oktabrda imzolandi. Yangi tuzumning ilg’or qanoti nafaqat britan istilochilari ustidan, balki o’zlarining ichki raqiblari ustidan ham ustunlikni qo’lga kiritdi. Yosh ofitserlar xalq ko’zida o’ngida milliy qahramonlarga aylandilar. Ingliz qo’shinlarining 1956-yil iyunida Suvaysh kanali zonasidan olib chiqib ketilishi inqilobiy hukumatning haqiqiy tantanasi bo’ldi. Shunday qilib, Misrdagi britan istilosining 74 yillik tarixiga yakun yasadi.

⁴⁴ Елистратова Т.Е. Причины победы революции 1952 года [www.people`shistory.ru/](http://www.people`shistory.ru/), 2005.

Istilochi qo`shinlarning chiqarilishidan so`ng darhol hukumat inqilobdan keyin kiritilgan harbiy holat haqidagi qonunni bekor qilib, keyinchalik barcha siyosiy mahbuslarga amnistiya berildi. Nosir endi darhol konstitutsiya ishlab chiqishni zarur deb hisobladi. U 1956-yil 23-iyunda plebitsit yo`li bilan tasdiqlandi. “O`tish davri” tugadi.⁴⁵ Konstitutsiya qabul qilinishi Misr suverenitetini mustahkamlandi. 1956-yil 23-iyunda Nosir prezident etib saylandi.⁴⁶ Inqilobiy rahbariyat kengashi o`z vakilligini o`z zimmsidan soqit qildi.

Nosir Misrning yangi taraqqiyot yo`lining rejasini tuza boshladi. Inqilobdan keyingi dastlabki kunlarda “Ozod ofitserlar” misrliklarning ko`p asrlik orzusi – Nil daryosida baland qo`rg`onni qurishni amalga oshirishni mo`ljalladilar. Uzoq yillar davomida Misr Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki bilan bu to`g`onni qurish haqida muzokaralar olib bordi. Bu borada Misr elchisi Aahmad Xusayn Jon Foster Dalles bilan suhbatlashib oldilar. U sovet hukumati va Xalqaro Bank yaxshi shartlarni shartlarni taklif qilgan, biroq Misr hukumati buni rad qilganligini aytadi. Haqiqatda esa Sovet ittifoqiga hech qanday taklif qilmagan edi. Xeykalning yozishicha Ahmad Husayin tavakkallarcha harakat qilgan edi. Shundan so`ng Angliya va AQSh faqatgina to`g`on qurilishining birinchi yili xarajatlarni qoplashga rozilik berdilar.⁴⁷

Nosir o`n yilga mo`ljallangan to`g`on qurilishini boshlashga qaror qilmadi. Chunki Angliya va AQSh yordami yosh respublikani ularning bosim o`tkazish vositasi bo`lishi mumkin edi. AQSh esa Baland to`g`on qurilishida o`z yordamini turli talablar bilan shart qilib qo`ydi. Chunonchi Misr Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan qurol keltirish haqida yangi imzolamasligi kerak edi. Undan tashqari Nosir Yaqin Sharqdagi o`z liderlik roldan foydalanib, Isroil bilan tinchlikni kafolatlashi kerak edi. AQSh bilan muzokaralar boshi berk ko`chaga kirib qolishi aniq bo`lib qoldi. Tezda bu haqiqatda tasdiqlandi-AQSh o`zining dastlabki qarorini o`zgartirib, qurilishni loyhashtirishni rad etdi. 1956-yil 26-iyulda AQSh Assuan to`g`oni qurilishi moliyalashtirishning rad etlishidan bir

⁴⁵ Беляев И. От Насера до Мубарака. //Азия и Африка сегодня № 8, 1990, с.16-21.

⁴⁶ А Хамруш Революция 23 июля 1952г в Египте М 1984 стр-119

⁴⁷ Б. Г. Сейранян Египет в борьбе за независимость 1945-1952, М., 1970, с.199.

hafta o'tib, Misr prezidenti Nosir Iskandariya paxta birja balkonidan Suvaysh kanalini milliyashtirilganini e'lon qildi. 1956-yilda hech kim Suvaysh kanalidagi xorijiy hukmronligiga qarshi yo'naltirilgan jiddiy oqibatga olib kelgan qadamni qo'yolmagan edi.⁴⁸

Suvaysh kanali O'rta Yer dengizini Qizil dengiz bilan birlashtirib turuvchi kanal bo'lib, Atlantika va Hind okeanlari o'rtasidagi eng qisqa suv yo'li hisoblanardi. Kanal qurilishi 1859-yil 25-aprelda fransuz va italyan muhandislari loyhasi bo'yicha boshlangan. Kanal 1869-yil 17-noyabrda rasmiy ochilgan. Kanalning uzunligi 161 km, kengilgi 120-150 metr, chuqurligi 12,5-13 metrni tashkil etadi.⁴⁹

Dastlab Suvaysh kanali kompaniyasining 53% hissasi Fransiya, 44% hissasi Misrga tegishli bo'lgan. Biroq 1870-yillarda Buyuk Britaniya bosh vaziri Dizraili davrida Buyuk Britaniya qarz to'lovi muammosi bo'yicha Misr hukumatidan aksiyaning Misr qismini sotib olishga muvaffaq bo'ldi. Kanal boshdan Britaniya uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan bo'lib, Britaniya va Britaniya imperiyasining uzoq mulklari o'rtasidagi aloqalarni oson ko'chishiga yordam berardi. XX asrda kanal qo'shimcha ahamiyatga ega bo'ldi. Bu fors ko'rfazidagi neft maydonlariga Yevropadan yo'l o'tishini bir necha marotaba osonlashtirdi. 1936-yilda Angliya va Misr o'rtasida shartnoma imzolaniib, unga muvofiq Misrda to'liq mustaqillik o'rnatilishi, biroq britan qo'shinlari 20 yil davomida kanal zonasida qolishi kerak edi. Nosirning Iskandariyadagi bayonoti G'arb davlatlarini sarosimaga tushirib qo'ydi. Chunki ular Suvaysh kanalidan mahrum bo'lishni aslo istamas edi. Shuning uchun AQSh, Angliya va Fransiya Suvaysh kanalini baynalmilallashtirishni ko'tarib chiqdi.

Bu bayonot bevosita Assuan to'g'oni qurilishi bilan bog'liq edi. Prezident Nosirning yozishicha: "Kanaldan keladigan daromadlar iqtisodiy taraqqiyot uchun xizmat qilishi, shu bilan birga, Assuan to'g'onini qurilishi uchun sarflanishini"⁵⁰ e'trof etdi. Kopaniyaning yillik daromadi 35 mln fund sterlingni tashkil qilardi.

⁴⁸ Васильев А., Перминов П. Революция и контрреволюция. //Азия и Африка сегодня № 7, 1992, с. 16.

⁴⁹ А. Агарышев "Гамаль Абдель Насер". М., 1975. стр-166

⁵⁰ Ш. Н. Курдгешвили. Революция 1952 и крах британского господства в Египте, М.,1966, стр-357

Aksionerlar va aksiya egalari tegishli kompensatsiya olish va 1888-yilgi kemalar qatnovi erkiligi to'g'risidagi konvensiyani bajarishni tantanali ravishda e'lon qildi.

Suvaysh kanalini baynalmilallashtirishni AQSh kotibi Jon Foster Dalles ko'tarib chiqdi. Uning fikriga ko'ra, Suvaysh kanali Amerika rahnamoligida xalqaro boshqaruv tashkiloti orqali idora etilishi kerak edi. Ammo Nosir buni rad etdi. Nosir Suvaysh zonasiga xorij kemalari Misr ma'muriyati rozilgisiz kirib keladigan bo'lsa, u holda bu Misr suverintetiga xiyonat qilish ekanligini ta'kidlab o'tdi. G'arb davrlari siyosiy bosimni kuchaytirgandan kuchaytirdi. Barcha choralar ish bermagach, g'arb davlatlari Misrga qarshi agressiya uyushtirdilar. Uch davlat (Angliya, Fransiya, Isroil) rahbarlari Misrga agressiyani rejasini ishlab chiqdi. Unga muvofiq, kemalar erkin suzishi niqobi ostida jangga dastlab Isroil armiyasi kirib kelishi, keyin Angliya, Fransiya qo'shinlari kirib kelishi kerak edi. 1956-yil 30-oktabrda Isroil qo'shinlari Sinay yarim oroliga hujm qildi. 1956-yil 31-oktabrda ittifoqchilar armiyasi bo'limlari Misrning harbiy va fuqoroviy ob'yektlarini bombardimon qildilar. 5-noyabrda esa Suvaysh kanali sohillariga harbiy havo va harbiy dengiz desanti qismlarini tushirdi. Ushbu voqea uchlar agressiyasi degan nom qoldirdi.⁵¹

Misr xalqi ularga qarshi munosib qarshilik kursatdi. Misrliklar Nosir atrofida joylashgan holda kurashga tayyor ekanligini yaqqol namoyon etdilar. Prezident Nosir vaziyatni hisobga olib 1956-yil 2-noyabrda jangning eng qizigan pallasida juma nomoz kuni Qohiradagi Al-Azhar masjidida to'plangan musulmonlarga murojaat qilib ularni vatanni himoya qilishga chaqirdi.

Isroil armiyasi 6-noyabrda Sinay yarim oroliga asosiy zarbani beradi. Shu kuni BMT xavfsizlik kengashi yig'ilishida barcha frontlarda harbiy harakatlarni to'xtatishni talab qildi. Ammo Isroil hujumni davom ettirib, 5-noyabrga kelganda Sharm ash-Shayx, G'azo va Rafiq deb atalgan shaharlarni zabt etdi. Deyarli butun Sinay yarim oroli isroilliklar nazorati ostiga tushib qoldi. Sinay operatsiyasi 8 kun davom etdi. Shu kun ichida Misr armiyasi og'ir mag'lubiyatga duchor bo'ldi.

⁵¹ Г. А. Насер. Проблемы египетской революции. Избранные речи и выступления 1952-1970 гг. М., 1979, стр-397

Biroq uchlar agressiyasi bosqinchilarga to'liq g'alaba keltirmadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, agressiyaning barbod bo'lishi SSSRning 1956-yilning 5-noyabrida e'lon qilgan bayonoti o'z hissasini qo'shgandi. BMT xavfsizlik kengashining qarori, Sovet hokimiyatining Misrni qo'llab-quvvatlashi agressiyani barbod bo'lishiga olib keladi. 1956-yil 22-dekabrda Angliya va Fransiya, 1957-yil 7-martda esa Isroil qo'shinlari Misr hududini tark etishga majbur bo'ldilar. Suvaysh bosqinidan so'ng ayniqsa Misrda Anfliya pozitsiyasi o'ta zaiflashib qoldi. Misrliklar nafaqat endi kanalni to'liq nazorat qila boshladi, balki Suvaysh kanali kompaniyasining omborlarini musodara qildilar. Ingliz va fransuz mulklari xatlab olindi. Mamlakat hududidagi so'nggi mustamlakachilik tayanchi yo'q qilindi.⁵²

⁵² Б.Н.Гашев. Государственный сектор в экономике Арабской Республики Египет(1952-1972). М.,1978, стр-419

III.BOB.NOSIR MA'MURIYATINING TASHQI SIYOSATI.

3.1.Misr va Yaqin Sharq muammosi

G`arb manbalarida Nosirni arab mamlakatlarini o`ziga bo`ysundirish maqsadida hattoki Misr milliy qarashlaridan voz kechishga tayyor shaxs deb baholaydilar. Nosir shuningdek Angliya imperyalizmiga qarshi mardonavor kurashdi. Shuni alohida ta`kidlash lozomki, Nosir eng katta arab davlati hisoblangan- Misrni boshqargan. Bu esa uning Yaqin Sharqda bo`layotgan arab davlatlariga tahdidlariga milliy yo`lboshchi sifatida qarab tura olmasligini bildirar edi. Shuning bilan Nosir arab mamlakatlarini yagona bayroq ostida birlashtirishga harakat qilar ekan, u hech vaqt bunga ekstrimistik yo`l bilan erishishni maqsad qilib qo`ymagan. “Nil vodiysi birligi” ya`ni Misr va Sudan davlatlarini birlashtirish haqida ko`plab maqolalar yozilgan. Hali 1950-51-yillardayoq vafdistik hukumati o`z pozitsiyasini Misr-Sudanni birlashtirishga qaratdi. Bir tomondan olib qaraydigan bo`lsak, Misr va Sudanni birlashtirish 1952-yil onasi Sudan millatiga mansub bo`lgan general Najibning hokimiyatga kelishi bilan amalga oshirishi mumkin bo`lgudek ko`ringandi. Nosir Misrni Sudan bilan birlashtirishda Sudan ichida ayrim katta siyosiy va diniy kuchlardan cho`chib turgan. Bundan esa Misr raqiblari bo`lgan imperyalistik kuchlar foydalanishi mumkin bo`lgan. Buning oldini olish maqsadida 1953-yil 12-fevralda Misr Angliya bilan Sudan masalasida bitim imzolaydi.Unga ko`ra ingliz va Misr harbiy kuchlari Sudan hududidan olib chiqila boshlandi. 1956-yil Sudan to`liq mustaqillikka erishdi.⁵³ Birinchi bo`lib uning mustaqilligini Misr tan oldi. Endi Nosir Sudanni BAD ga qo`shishga intilmadi. Unga esa Suriya ham qo`shilgan. Nosirning olib borgan antiemperial va vatanparvarlik siyosati Misr davlatiga boshqa arab davlatlarining o`z ixtiyori bilan birlashishiga olib keldi. Bunga misol qilib Qohirani aytish mumkin

Nosir tashqi siyosatida arab-isroil muammosi xususan Isroilning ekspansionizmga qarshi kurash alohida o`rin tutadi. Nosirning tiriklik chog`idayoq

⁵³ П. Беляев, Е. М. Примаков. Египет: время президента Насера. М., 1981, стр-39

g'arb olami va Isroil tomonidan ko'plab tanqidlarga uchradi. U to'g'ri siyosat olib bormayotganlikda Isroilni harbiy yo'l bilan yo'q qilishga intilganlikda ayiblar edilar. Ammo Nosir arab-isroil muammasini hal etish kerakligini ham aytib o'tgan edi. Hindistonning Qohiradagi elchisi tarixchi K.M.Panikarning ta'kidlashicha u Isroil premer-ministeri Sharetni Nosir bilan uchrashtirmoqchi bo'ldi. Bu uchrashuvni tashkil etish 1955-yilning bahorigacha davom etadi. Ammo Isroilliklarning G'azo hududiga qilgan hujumini bu uchrashuvni to'xtatadi. Bunday uchrashuvni uyushtirishga ingliz parlamentia'zolari Maris Abraxon va I.Xrishmon tomonidan ham harakat qilingan. 1954-1955-yillarda Misr va Isroil o'rtasidagi munosabatlar yanada yomonlashadi. Bu voqealar Misr-Fedian janglari va Isroil harbiy aksiyasi bilan bog'liq edi. Bu munosabatlarni yomonlashtirgan voqealardan biri "Susanna operatsiyasi" edi.⁵⁴ Unga ko'ra Isroilning "Massad" razvedkasi Misrda g'arb maqsadlariga traktadlar uyushtirib, buni Misr islomistlariga to'kamoqchi bo'ldi. Shu bilan ular Misrni Angliya va AQSh bilan aloqalarini uzmoqchi bo'ldi. Bu operatsiya muvaffaqiyatsizlikka uchragach Isroilda "Lavona ishi"deb nom olgan ichki siyosiy mojaro boshlanadi.

1955-yilda Angliya va AQSH ikala davlat o'rtasidagi munosabatni yaxshilash uchun quyidagi rejani taqdim etishadi.Unga ko'ra Misr va Iordaniya o'rtasida karidor tashkil etish uchun Isroil Misrga Nagevni janubiy qismini berish kerak edi.Bundan tashqari Isroil Falastin qochoqlarini bir qismini qabul qilib ,qolganlariga kompenstatsiya ajratishi kerak edi.Bu reja"Alfa rejasi" nomini oldi.Misr o'z navbatida butun Nagevni talab qilgach Isroil uning hatto janubiy qismini ham bermaslikka qaror qildi.

1967-yil mart, aprel oylarida Isroil va Suriya munosabatlari buzila boshlaydi. Bunga sabab esa Isroil askarlarining Suriya chegarasi tomon harakat qilishi edi. Istoil askarlari suriyaliklar tomonga ochiqdan-ochiq tahdid solib Damashqni egallashini aytadi. Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda shu paytda chop etilgan maqolalarda AQSh ning bu urushlarda Isroilga yordam qo'lini cho'zayotgani yaqqol ko'zga tashlanadi. Misr askarlari Sinay yarim oroliga siljishga majbur

⁵⁴ А. Агарышев "Гамаль Абдель Насер". М., 1975. стр-25

bo`ladi. 16-may kuni general Muhammad Favzi ya`ni Misr armiyasi shtabi boshlig`i BMTning qo`shini rahbari Hindistonlik general Rekgiga xat yozib qo`ydogilarni aytadi.”Men birlashgan arab davlatlari qo`shinlariga agar Isroil biron-bir arab davlatiga nisbatan taziqni boshlasa unga qarshi tayyor turishlariga va unga qarshi barcha choralarni ko`rishga buyruq berdim”⁵⁵ deb aytadi.

BMT qo`shinlarining xavfsizligini ta`minlash maqsadida Favziy Misr va Isroil qo`shinlari bo`layotgan hudud G`azo va Eylat hududi oralig`idan ularning chiqib ketishlarini iltimos qiladi. Misr bu paytda qanday bo`lmasin urushni oldini olishga harakat qilgan. Nosir o`zining 27-29-may kunlaridagi chiqishlarida “Biz birinchi bo`lib o`q uzmoqchi emasmiz, biz bosqincilikni amalga oshirmoqchi emasmiz “⁵⁶ deb aytib o`tadi. Isroil generali bo`lgan keyinchilik tarix professori darajasiga erishgan 1967-yilgi urushlarda qatnashgan M. Pled qo`ydogilarni ta`kidlaydi: “1967-yil may oyidagi urushlarda Isroilning yo`q qilishning xavfi yo`q edi. Bu paytda Misr askarlari 80 ming kishi bo`sa, unga qarshi isroilliklar 100 mingdan ortgan”.⁵⁷

Nosir hech qachon Misr masalasini boshqa arab manfaatlarini suiste`mol qilgan holda hal etmagan. Nosir barcha separatik harakatlarga qarshi kurash olib borish kerakligini yaxshi tushunar edi. Shuning uchun ham orqasida AQSh turgan Isroilga qarshi kurashda SSSRning Yaqin Sharqdagi holatni taklifini tanladi. Nosirning fikricha Yaqin Sharqdagi inqirozning oldini olishning yagona yo`li bu 1967-yil Isroil tomonidan okupatsiya qilingan hududlardan o`z askarlarini olib chiqib ketishi, Falastin huquqlarining tan olinishi va bu hududda xavfsiz holda davlatlarning tinch yashashligi kerakligi masalasi edi. Nosir bunday og`ir vaziyatlarda ham o`sha paytda ikki dunyoda qudratli bo`lgan AQSH va SSSR manfaatlarini bir biridan ustun qo`ymagan. U ikalasini ham birdek bilgan. Nosirning ta`kidlashicha 1973-yilgi oktabrda bo`lgan urushlarda xalq kuchi va sovet qurol-aslahasi asosiy o`rin egalladi. Buni butun Yaqin Sharq O`rta Sharqda mashhur bo`lgan jurnalist Muhammad Haykal ham ta`kidlaydi.

⁵⁵ Беляев И. П. Страницы недавнего прошлого Египта. // Вопросы истории № 9, 1976, с. -14.//

⁵⁶ Гашев Б.Н. Государственный сектор в экономике Арабской Республики Египет (1952-1972). М., 1978, 414 с.

⁵⁷ Беляев И. От Насера до Мубарака. // Азия и Африка сегодня № 8, 1990, с.19.//

3.2. Misr va sotsialistik davlatlar o'rtasidagi munosabatlar.

G'arbga qarshi kuchlar ustunligiga erishish maqsadida Jamol Nosir o'ziga ittifoqchi qilib SSSRni tanlaydi. SSSR esa yaqin sharqda bunday ittifoqchisi bo'lishiga qarshi emas edi va g'arb Misrga nisbatan iqtisodiy blokada e'lon qilganida SSSR Misrni Neft va bug'doy bilan ta'minlab turdi. 1950-yil oxiridan SSSR Misrga iqtisodiy yordam qo'lini cho'za boshladi va o'z qulay sharoitidan kelib chiqib, Misrga Assuans platinasini qurib beradi. Kairni esa qurol bilan ta'minlaydi.⁵⁸ Ammo Nosir SSSR o'rta yer dengizi hududida o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda harakat qilayotganligini bilar edi. Ammo Nosir Misrning g'arb hukumron doiralaridan himoyalaniishining, mustaqillikka erishishning yagona yo'li SSSR bilan ittifoq tuzish ekanligini juda yaxshi tushinar edi. Shuning uchun u sotsialistik yo'lni tanladi. (Ammo u Marksizmning faqatgina iqtisodni mahalliyashtirish tarafdori edi). Maskva Nosirning tashqi siyosatdagi harakatlaridan juda cho'chir edi. Chunki u butun Arab davlatlarini bir bayroq ostida birlashtirishga harakat qilib, buning yo'lida birinchi dostlapki qadam sifatida Suriya va Misrni birlashtirishni oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Bunday oldindan natijasini bilib bo'lmaydigan siyosat olib borish natijasida Misr va SSSR o'rtasidagi munosabatlarga tasir etmay qolmagan albatta. Ammo bu ikki davlatning umumiy raqiblari AQSH va Isroil bo'lishi ularning ittifoqini yanada mustahkamlab turgan. 1964-yil oktyabr oyida SSSR rahbari N.S. Xrushyov hukumati o'zgartirilganch, Nosir o'z armiyasi marshili Amerni SSSRga yuboradi va bundan maqsad esa bu paytga kelib SSSRning yaqin sharqqa xususan Misrga bo'lgan munosabatining qay darajada ekanligini aniqlashdan iborat edi.⁵⁹ (Ruslarni sevish yoki sevmaslik mumkin, ammo ular bilan albatta hisoblashish kerak).

Hozirgi kunga qadar SSSR havo kuchlarining 1956-yilgi Yaqin Sharqda bo'lib o'tgan urushlarda qatnashgan yoki qatnashmaganligi ko'pgina olimlarning

⁵⁸ Протопопов А. С. Советский Союз и Суэцкий кризис 1956 года (июль - ноябрь). М., 1969, 522 с.

⁵⁹ Протопопов А. С. Советский Союз и Суэцкий кризис 1956 года (июль - ноябрь). М., 1969, 528 с.

tortishuviga sabab bo'lmoqda. 1948-yilda Isroil davlatini tashkil etish masalasi. Birlashgan millatlar tashkiloti oldiga qo'yilganda SSSR bu masalaning barcha jihatlarini o'z joy-joyiga qo'yadi. Birinchi Arab-Isroil urushi boshlangach SSSR rahbari Stalin Isroilliklarni nafaqat qurol-aslaha bilan ta'minlab qolmasdan (chexoslovakiya orqali) balki, bu hududga ulug' vatan urushi qatnashchilarini ham yordam sifatida yubordi.

Ushbu paytda Isroil armiyasida sovet tank batalyonlari, harbiy havo kuchlari uchuvchilari mavjud bo'lgan. SSSRning Isroilga ko'rsatgan bunday yordamiga asosiy sabab bu urushlar tugagach Isroil sovet nusxasidagi "Satsilizm" qurishiga ishonch sabab bo'lgan. Ammo amalda bu narsa bo'lmasdan 1950-yil o'rtalariga kelibq endi SSSR o'z nigohini va yordamini avvalo arab davlatlari xususan birinchi o'rinda Misr va Suriyaga qaratdi. 1955-yil oxiriga kelibq Misrga Chexaslavakiya orqali (qulay davlat sifatida) ko'plab miqdorda qurol-aslohalalar yuborildi.⁶⁰ Ular ichida 200 ga yaqin yangi turdagi reaktiv qiruvchilar, bombardimonlar yuborildi. End MISR havo kuchlarini qayta o'qitish va qurollantirish boshlandi. Ammo buni qisqa vaqt ichida amalga oshirib bulmasdi. Ammo Misrda ahvol og'irlasha borgach bu hududga sovet va chex uchuvchi muhandislarini yuborishga kelishib olindi SSSR da qabul qilingan sovet Ministrligining L 1763-954 (1955-yil 29-sentabr) dagi qarorida muvofiq yuqoridagi kuchlar MISRga CHexoslavakiya orqali yuborilishi kerak edi. Shuning uchun ko'pgina o'sha paytda MISR havo kuchlarida xizmat qilgan uchuvchilar, chet ellardan kelgan uchuvchilar asli chexlar edi deb ta'kidlashadi. Bu uchuvchilar 1956-yilda 29- Oktiyabirda boshlangan ikkinchi arab-Isroil urushida qatnashishdi.

Bu paytda MISR havo kuchlari safida bor yug'i 160 samalyot mavjud bo'lgan. Bu samalyotlardan faqatgina 69 tasi harbiy uchishga tayor deb sanalib asosiy raqiblari bo'lgan Isroilning "xel xavir" nomli harbiy havo kuchlariga qarshi chiqishi mumkin bo'gan. Samalyot turlari ichida „Mig-15” -30 dona bo'lgan Samalyotlar ichida „MIG -17 F” ni bor yo'g'i 1956-yilda Mayor shalabi

⁶⁰ И. П. Беляев, Е. М. Примаков. Египет: время президента Насера. М., 1981, стр-36

el xinnav o'rganib o'zlashtirishga muvaffaq bo'lgan. Ammo urish boshidan „MIOG” samayotlari aktiv qatnashgan. Masalan, 1956-yil 30-oktyabrda „MIG - 15” samalyoti tomonidan ingliz samalyoti „Kanberra”ni qo'lga olib unga shikast yetkazishga muvoffaqt bo'lingan. Usha kuniyoq arab uchuvchilari 202-parashyut brigadasiga bir qator zarbalar beradilar. Ular Sinay hududiga hujum qilayotgan edi. Isroil safida bo'lgan savet askarlari keyingi kuniyoq Maskvadan buyruqlarni kutib o'tirmasdan jangga kirishadi. Dastlab keskin hujumlar amalga oshirilib keyinchalik bir necha bor havo kuchlari tomonidan ham zarba beriladi. Bundan tashqari 1-noyabr kuni Misrga zudlik bilan uchuvchilar guruhi sovetlar tomonidan toshlanib, ular Mig-17f “ samalyotini taqib etishdi. 1-noyabrdagi vaqealardan so'ng esa sinaydagi urushga Fransuzlar va inglizlar aralashdi. Ma'lumotlarga ko'ra Inglizlar Misr havo kuchlari safida chet el uchuvchilari bo'lganligidan yaxshi xabardor bo'lishgan. Bu ularning Misrga qarshi kechki vaqtda olib borilgan “Mushketiyor” nomli operatsiyalaridan tezkor harakatlarida yaqqol ko'zga tashlandi. Chunki 1955-yildan barcha arab davlatlari uchuvchilari o'z mahoratlarini, Tumanli Albianda Angliyada o'tashgan edilar 3-noyabr kuni savet uchuvchisi Sergey Anatolevich Sintsov (Bundan oldin Koriyadagi urushlarda qatnashib 3 ta raqib samalyotini urib tushirgan). O'rta yer dengizi ustidan parvoz qilarman shimolroqda SUETSK kanali yaqinida englizlarga tigishli „Vaynvern” nomli Samolyotni ko'rib qoladi va unga qaqshatqich zarba biradi. Ammo bu dalillarni Inglizlar tan olmay urib trushurilgan samolyot uchuvchisi Dennis Makkarti tirikligini takidlashdi. Sovet armiyasi samolyotlari „Il-28” ham Irkutisk zavodida Innokinti Vosilyevich boshchiligida ishlab chiqarilib, ular yordamida hattoki, Beer Sheba rayoni hududiga Isroillikarga misirliklarga zarba bermoqchi bo'lishganligi haqida ma'lumotlar bor. Ammo bunday samalyotlarga ko'p yoqilg'i sarflanishi tufayli bu tezkor harakatlar to'xtatildi. Ma'lumotlarga ko'ra 1-noyabr kechasi MISR liklarning „Il” samalyotlari o'z harbiy qurollarini Ramat Rachel hududiga Isroilga tashlashadi.⁶¹ Shunda Nosir Misr armiyasi samalyotlari

⁶¹ Г. А. Насер. Проблемы египетской революции. Избранные речи и выступления 1952-1970гг. М., 1979, стр-400

qudratini yanada zamonaviylariga boytish maqsadida Sovet va Chexlardan yangi texnikalarni sotib olib ularni o'z hududida va qo'shni Suriya va Saudiya Arabistoni hududida joylashtiradi.

Chexoslavakiya ham jahon bozorida o'sha payitda eng yirik qurol sotuvchi davlatlardan biri bo'lgan. Aynan Chexlarning qurollari yordamida yosh Isroil Davlati 1948-yilgi urushlarda o'z mustaqilligini saqlab qoladi. Shunisi qiziqki, shu bir payitning o'zida Chex qurol-aslahalari Arab Davlatlariga ham yetkazib turilgan. Chexoslavakiya davlatda kommunistik mafkura o'rnatilgach endi chexoslavakiya „Katta akasi“ bo'lmish SSSR ruxsat etgan davlatlargagina qurol-aslaha sotishi mumkin bo'lgan 1950- yil o'rtalaridan sobiq sovet ittifoqi arab davlatlari birinchilardan Misr va Suriyaga qayta armiyasini qurollantirshda yordam bira boshlaydi.⁶² Bu chexlarni ham qiziqtrib qo'yadi. 1955-yil avgust Misr va Chexoslavakiya o'rtasida yangi qurol bilan Misrni taminlash borasida kelishuv bitimi imzolandi. Taminlashda birinchi o'rinda harbiy samalyotlar turgan. Chex harbiy havo kuchlari o'rgatuvchilarining Misr havo kuchlari safida bo'lganlikari sir tutilsada bu haqida ko'pchilikning xabari bo'lgan. Dunoda hamjamiyati chexlarning Misrdagi harakatlarda bilgan asosiy malumotlari bu ularning 1955-yilgi harbiy parade chex uchuvchilari o'zlarining „MIG-15“ samalyotlarida Qohira shahri osmoni ustidan parvoz qilib o'tishganligidir.

Chexoslavakiya tamonidan ishlab chiqilayotgan MIG-15 samalyotlari (Ular bu hududida S-103 rusumi ostida ishlab chiqarilgan) MISR 1955-yil dekabr oyida Sovitlarning yuk tashuvchi „Staligrad“ samalyotida keltirilgan edi. Shu yuqordagi yil oxirgacha bunday samalyotlar MISRga 80 nafar keltirdi. Shuningdik MISRga 6 ta „MIG -15“ UTI (8 CS-102) samalyotlari yuborildi. 1956-yil may oyida MISRga general-mayor Reynlim boshliq: 3 ta uchuvchi Lyudovit Solar, Egon Skala, Yuriy Plzaklar, 2 mutaxasis: muhadis Sebek va radiotelegrafchi Stregl va tarjimon mayor Sasilar kelishdi. Ular MISRning kaorit, Bibleys, va Abu Suer aerodromlarida bo'lashadi. Tez orada suriyaliklar bilan muzokaralar boshlamadi.

⁶² Б.Н.Гашев. Государственный сектор в экономике Арабской Республики Египет(1952-1972). М.,1978, стр-424

Gap shundaki bu paytda mamlakatda qiruvchi samolyatlarni qabul qila olishga qodir aerodrom mavjud bo'lgan. Kel tirilgan samalyotlar ham misr aviabarsi bo'lgan Dikxeykada yig'ilgan.

1956-yilda Ingliz va fransuz desanti Kuellari Misr hududiga tushurilgach arablar urushni boy berganligi yaqqol ko'rinib qoldi. Faqatgina sobiq Sovet itifoqining g'arbni „Yadro quroli“ bilan qo'rqitish natijasida Nosir hukumati qulashdan qutilib qoldi. U bu mag'lubiyatni yutuqqa aylantirdi. Bu esa o'sha paytda boshlanib, hozirgi kungacha davom etayotgan Yaqin Sharqdagi munosabatlarni yanada chigallashtirdi.

Varshava bitimiga a'zo davlatlar va Misrning yaqinlashuvi.

Misr Varshava bitimiga a'zo davlatlar tomonidan yangi qurollarga ega bo'lishidan Isroil ham cho'chiyotgan edi. 1955-yilda SSSR ruxsati bilan Chexoslovakiya va Misr o'rtasida kelishuv imzolandi. Bular o'rtasida neytral davlat, kuzatuvchi davlatlardan Xitoy premer-ministri Chjo Enlay qatnashdi. Kelishuvga ko'ra Misr: 120 dona Reaktiv qiruvchi “Mig -15 bis” samalyotiga. “Il-28” rusumli bombardimonchi samolyotiga, 230 dona –“T-34” rusumli tanklarga 200 dona-bronetrans partiyorlarga, 100 dona o'zi yuruvchi artileriya qurilmalariga, 150 dona-pushkaga. (boshqa malumotlarga ko'ra 500 dona) ; 6dona-yer osti kemasiga (Boshqa malumotlarga ko'rafaqat 2 ta); bir necha harbiy kemalarga, 100 dona-yuk tashuvchi zis-150 kemasiga, ega bo'ldi.⁶³ Sal keyinroq “Mig-17F” rusumdagi yangi turdagi qiruvchi samalyotlarga ega bo'ladi. Buning natijasida 1956-yil boshiga jelib Misr harbiy kuchlari qudrati Isroil armiyasidan 4 barobarga yuqori darajaga ko'tarildi.⁶⁴

⁶³ А. Агарышев “Гамаль Абдель Насер”. М., 1975. стр-177

⁶⁴ Протопопов А. С. Советский Союз и Суэцкий кризис 1956 года (июль - ноябрь). М., 1969, 555 с.

3.3.Misr va G'arb dunyosi o'rtasidagi munosabatlar.

1954-yilda Nosir prezidentlikni egallaydi. U birinchi navbatda ingliz okupatsiyasiga barham berishni o'zining asosiy vazifasi deb bildi va bu masala yuzasidan inglizlar bilan muzokara olib bordi va ijobiy natijalarga erishdi. 1954-yil 19-oktabrda Angliya-Misr shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra Britaniya qo'shinlari 20 oy ichida Misr zaminini tark etishi shart edi. 1956-yilning iyulida ingliz qo'shinlarining oxirgi bo'limi Port-Saidni tark etdi.⁶⁵ Bu esa Misrni o'z g'alabasi edi.

Misr Suvaysh kanalini qurishda katta miqdorda qarz bo'lib ketadi. Bu qarzlardan qutilish maqsadida o'zining hissasini 4 mln funt sterling evaziga Angliyaga sotishga majbur bo'ldi. Bu haqida London "ekonomisti"shunday yozadi: "Kanal fransuzlar mehnati va misrliklar mablag'i hisobiga inglizlar foydasiga qazildi".⁶⁶ Kanalning Angliya uchun strategik muhimligi u tomonidan 1882-yilda Misrni okupatsiya etilishiga sabab bo'ldi. 1954-yil Misr hukumati to'g'on qurish masalasida AQSh va Angliya bilan muzokaralar boshlaydi. 1956-yil AQSh shu masalada 250 mln yordam berdi. Lekin Misrning mustaqil tashqi siyosat yuritishi g'arb davlatlariga yoqmaydi. Misr tomonidan sotsialistik davlatlardan qurol sotib olishi g'arb davlatlarini Misrni o'z siyosiy maqsadlar bilan ushlab turish haqidagi umidini yo'q qilishga olib keladi. Shunda AQSh davlat kotibi Dalles Misrga Asuans to'g'onini qurish uchun qarz berishni to'xtatishni aytdi. Bunga qarshi prezident Nosir 1956-yil 26-iyulda Suvaysh kanalini milliyalashtirish haqidagi bayonotini e'lon qilib, undan tushgan mablag'ni to'g'on qurilishiga sarflashini aytdi.⁶⁷

Bunga javoban g'arb davlatlari suvaysh kanalini ishini to'xtatib qo'yish uchun Misrdan o'z mutaxassislarini olib chiqib ketdi. 1956-yil 2-avgustda Angliya, Fransiya va AQSh kanal boshqaruvini xalqaro tashkilotga topshirish haqida

⁶⁵ Б.Н.Гашев. Государственный сектор в экономике Арабской Республики Египет(1952-1972). М.,1978, стр-446

⁶⁶ И. П. Беляев, Е. М. Примаков. Египет: время президента Насера. М., 1981, стр-54

⁶⁷ А Хамруш Революция 23 июля 1952г в Египте М 1984 стр-105

birgalikda qaror qabul qilib, unga ko`ra Londonda 16- avgustda kanaldan foydalanuvchi 24 davlat boshchiligida konfrensiya chaqirishga kelishib oladi. Unda kanalni internatsionilizatsiya qilib, boshqaruvni xalqaro kengashga topshirish ko`zda tutiladi. SSSR bunga qarshi chiqadi. 10-sentabrda Dalles “Suvaysh kanali foydalanuvchilari assatsatsiyasi” tuzish dasturini taklif etadi. Uni vazifasi kanaldan tushadigan mablag`larni yig`ish edi. Bu dasturni ham SSSR rad etadi. 19-sentabrda Londonda 18 davlat ishtirokida (Misr va SSSR dan tashqari) konfrensiya bo`ladi. Unda kanalni internatsionilizatsiya etish haqidagi dasturni qabul qiladi. 5-13-oktabrda Suvaysh masalasi BMTda ko`rib chiqildi. Imperyalistik davlatlar BMT aftaritetidan foydalanib, yuqoridagi dasturni amalga oshirmoqchi bo`ldi. Lekin BMT buni rad etib kanal ustidan Misr suverintetini tan oldi. Barcha rejalari barbod bo`lgach, Angliya va Fransiya Misrga qarshi intervinsiyaga tayyorlanadi. Bvunga sabab qilib, ular 1956-yil 30-oktabrda Misrni Isroilga yurishidan foydalandi. O`sha kuni Misr va Isroil hukumatiga Angliya va Fransiya tomonidan ultimatum qo`yiladi. Unga ko`ra har ikkala davlat ham 12 soat ichida harbiy harakatlarni to`xtatib, Suvaysh kanalidan 10 mil nariga ketib, anglo-fransuz qo`shinlarini Port-Saidga kirishga ruxsat berishi kerak edi. Lekin Isroil bunga rozi bo`lib, Misr rozi bo`lmaydi.

1956-yil 22-oktabrda Fransiyani Servi shahrida Angliya, Fransiya, Isroil o`rtasida maxfiy kelishuv imzolanadi. Unga ko`ra Isroil Misrga hujum qilishi uni orqasidan Angliya va Fransiya Suvaysh kanalini himoya qilish bohonasida Misrga yurish qilishi kerak edi. Bunday vaziyatda Misrga Osiyo, Afrika va SSSR katta yordam berdi. 30-oktabrda BMT hujumni to`xtatish haqida rezalutsiya qabul qilindi. BMT 4-noyabrda favqulotda qo`shinlarini tuzib, ularni Misr hududiga kiritish haqida qaror qabul qiladi. 4-noyabrda SSSR agressor davlatlarga agar hujumni to`xtatmasa Yaqin Sharqda kuch bilan tartib o`rnatishni aytadi. 7-noyabrda agressor davlatlar hujumni to`xtatib, Misr hududini tark etdi. SSSRni ogohlantirishi bu masalani hal qilishda asosiy rol o`ynadi.⁶⁸

⁶⁸ Суэцкий вопрос и империалистическая агрессия против Египта. М., 1983, 265 с.

Uchlar agressiyasining asosiy maqsadi Yaqin Sharqda imperyalistik kurash lidiriga aylanib borayotgan Nosir hukumatini og`darish edi. 1957-yil 1-yanvarda Nosir 1954-yilda imzolangan kelishuvni noqonuniy deb e`lon qildi. Harbiy agrissiya barbod bo`lgach, imperyalistik davlatlar Misrni iqtisodiy qamal qila boshlaydi. Ular tomonidan Misrni London va Vashingtandagi hisob raqamlari muzlatilib, jahon bozorida Misr paxtasi narxini sun`iy ravishda tushiradi. AQSh ham Misr paxtasini importini tugatadi. Bunday vaziyatda Misrga yordamga SSSR keladi. Bunga javoban Misr g`arb davlatlaridan importini to`xtatib, o`zini tashqi savdosini sharqqa burdi.

Ruzveltning sobiq emissari Ira Xirshman Isroil manfaatlaridan kelib chiqib harakat qiladigan shaxslardan bo`lgan. Xirshman Nosir bilan uchrashuvdan so`ng Isroilning Telaviv shahriga uchib borib Sharet va Isroil mudofaa vaziri Ben Gurion bilan uchrashadi. Xirshman taklifiga javoban Ben Gurion Nosir haqida shunday deydi: “Nosirning egar ustida utirib-turishiga kam vaqt qoldi”.⁶⁹Keyinchalik Isroil rahbarlari har qanday vaziyatda biz arablar bilan muzokaralar olib borishga tayyor edik deb aytadilar.

BMTda faoliyat olib borgan AQSHning sobiq a`zosi Charlz Yostning ta`kidlashicha U.Tanu nomli shaxsning yozgan xati Nosir tomonidan qabul qilinmasdan va Nosir BMT qo`shinlarining Sharm-ash-Shayxa degan hududdan chiqib ketishlarini xohlamagan.Misr armiyasi Sinay hududiga yo`l olar ekan ular oldindan ko`zlangan reja asosida AQSHning Qohiradagi elchixonasi yonidan qadam tashlab o`tishadi.Nosir bu ayyorona harakat orqali ya`ni harbiy-siyosiy yurish orqali Suriyaga hujum qilinishining oldini olgan holda o`zining yana bir bor arab olamidagi mavqeyini aqshliklarga ko`rsatmoqchi edi.

Favziy o`z xatiga U.Tanudan javob xatini oladi.Unda BMT askarlarini Sharm-ash-Shayxa hududidan butunlay olib chiqib ketish yoki ularni umuman olib chiqib ketmasligini aytadi.Buning natijasida Misr har tomonlama noqulay vaziyatda qoladi.Endi Misr BMT qo`shinlarining Sharm-ash-Shayxa hududidan olib chiqib ketishiga to`liq erishishi kerak edi.Bu esa ularning Isroil qo`shini bilan

⁶⁹ Суэцкий вопрос и империалистическая агрессия против Египта. М.,1983, 267 с

to'qnashuviga oolib kekishi mumkin edi. Bu yuqoridagi Sharm-ash-Shayxa hududi Misrga tegishli edi. Misr askarlari bu hududga kimgach, Qohira endi Isroilni qurol-aslaha bilan ta'minlovchi suv porti bo'lgan Transkni Isroil uchun yopib qo'yishini aytadi. U Tanu AQSH ko'rsatmasi va yordami bilan Qohiraga uchib keladi. U quyidagi 3ta rejani isroilliklar oldiga qo'yadi: Isroilga bo'lgan iltimosi bu-misrliklarning portni yopib qo'yganligiga iqrar bo'lmaguncha Akaba porti orqali hech qanday kema o'tmasligiga yo'l qo'ymaslik; Isroilga harbiy yuk yetkazib beruvchi davlatlarning ma'lum bir muddat Transk hududi orqali buni oshirmasliklari; uchunchi iltimos bu Misrga qaratilgan bo'lib, unga ko'ra Misr Transk hududidan o'tuvchi Isroil kemalariga tazyiq o'tkazmaslik masalalari edi. Bu vaqtga kelib endi Misr mavqeyi va Nosir obro'yi bir necha barobarga ortadi.

Isroil va G'arbning imperialistik kuchlari bir necha bor Nosirni tiz cho'ktirishga harakat qiladilar. Bu yo'lda ular intervinsiya yo'li bilan aralashuvi, iqtisodiy tazyiq, Misr va boshqa arab davlatlaridagi harakatlar orqali amalga oshirmoqchi bo'ldilar. Nosir bu harakatlarda eng avvalo sotsialistik davlatlarga birinchi o'rinda Sobiq Sovet ittifoqiga tayangan holda g'alaba qozondi. Sobiq Misr premer ministri Aziz Sidqiyning ta'kidlashicha Sovet ittifoqi yordami bilan Misrda ishlab chiqarish 20yil ichida 800%ga o'sdi.⁷⁰

⁷⁰ И. П. Беляев, Е. М. Примаков. Египет: время президента Насера. М., 1981, стр-175.

Xulosa.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Nosir davri Misr tarixida muhim burilish yasadi. U Misr xalqi uchun juda katta o'zgarishlarni amalgam oshirdi. Uning birinchi qilgan ishi Misr hududidan ingliz qo'shinlarini olib chiqish bo'ldi. Misrni mustaqil siyosat yuritishi uchun astoydil harakat qildi. Nosir amalga oshirgan ishlarning eng kattasi bu-agrar islohat bo'ldi. Unga ko'ra pomishcheklarning ortiqcha yerlari musodara qilinib, yersiz va kam yerli dehqonlarga berildi. Buning natijasida ko'plab dehqonlarning ahvoli yaxshilandi. 1952-yildagi agrar islohat natijasida hukumat o'z sinfini yirik yer egalariga qarshi qo'ydi. Bunga javoban 1954-yilda "Musulmon birodarlari" Nosirga suiqasd uyushtirishdi. Lekin bu suiqasd amalgam oshmadi.

1953-yilda Nosir ikki muhim –monarxiyani yuqotish va barcha eski siyosiy partiyalarni tarqatib yuborish haqida qaror qabul qildi. U g'arb davlatlari bilan hisoblashmay o'zi mustaqil siyosat yuritdi. Nosir mamlakat taraqqiyotini rivojlantirishda ko'proq sotsialistik yo'lni tanladi. Shu maqsadda u SSSR bilan yaqinlashish yo'lini tutdi. Bu yaqinlashish esa Misrni ko'pgina og'ir vaziyatlarda SSSR aralashuvi bilan chiqishga imkon berdi. Masalan, uchlar agressiyasiga qarshi SSSR yordam qo'lini cho'zdi.

Nosir Misr va Misr xalqi uchun ko'pgina ishlarni amalgam oshirdi. Shuning uchun u yetuk prezident va qudratli davlat arbobiga aylandi. U o'zining amalga oshirgan ishlari uchun Misr xalqining qahramoniga aylandi. Nosirni Misr xalqi qanchalik qo'llab-quvvatlaganini biz 1967-yil 5-iyunidagi Isroil tomonidan Misrga uyushtirilgan agressiyadan keyin ko'rishimiz mumkin. Unda Nosir iste'foga chiqishga qaror qilganda, Misr xalqi esa Qohirada miting uyushtirib, Nosirni lavozimida qolishini talab qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. I.A.Karimov "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" Toshkent, 2011
2. I.A Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari", Toshkent, "O'zbekiston", 1997-yil.
3. I.A Karimov "Asosiy maqsadimiz yurtimizda erkin va obod farovon hayot barpo etish yo'lini qattiyat bilan davom etirishdir" 2007 – yil
4. I.A Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" T: "Sharq" 1998-yil
5. Беляев И. От Насера до Мубарака. //Азия и Африка сегодня № 8, 1990, с.16-21.//
6. Беляев И. П. Страницы недавнего прошлого Египта.//Вопросы истории № 9, 1976, с. 11-14.//
7. Борисов А. Б. Роль ислама во внутренней и внешней политике Египта. М., 1991, 358 с.
8. Васильев А. М. Египет и египтяне. М., 2000, 398 с.
9. Васильев А., Перминов П. Революция и контрреволюция. //Азия и Африка сегодня № 7, 1992, с. 12-16. //
10. Газета "Труд", № 5/X, 1999, с11.
11. Гашев Б.Н. Государственный сектор в экономике Арабской Республики Египет (1952-1972). М., 1978, 410 с.
12. Елистратова Т.Е. Причины победы революции 1952 года [www.people`shistory.ru/](http://www.people`shistory.ru/), 2005.
13. История Азии и Африки (1901-1945) М: Владос, 2003, с.287-296.
14. История и экономика арабских стран. Сборник статей М.: Наука, 1977, 233 с.
15. Курдгелашвили Ш. Н. Революция 1952 и крах британского господства в Египте, М., 1966, 352 с.
16. Левин З. И. Развитие основных течений общественно-политической мысли в Сирии и Египте (Новое время), М., 1972, с 58.
17. Луцкий В. Б. Новая исто рия арабских стран, 2 изд., М., 1966, 517 с.

18. Насер Г. А. Проблемы египетской революции. Избранные речи и выступления 1952-1970 гг. М., 1979, 395 с.
19. Новейшая история арабских стран (1917--1966), М., 1968, с 45-48.
20. Протопопов А. С. Советский Союз и Суэцкий кризис 1956 года (июль - ноябрь). М., 1969, 523 с.
21. Сейранян Б. Г. Египет в борьбе за независимость 1945-1952, М., 1970, с.169.
22. Суэцкий вопрос и империалистическая агрессия против Египта. М.,1983, 265 с.
23. Фридман Л.А. Египет 1882-1952. Социально-экономическая структура деревни. М.: НАУКА, 1973, 426 с.
24. Бузов В.И. Новейшая история стран Азии и Африки (1945-2004) Ростов-на-Дону, 2005, 420 с.
25. “Президент Объединенной Арабской Республики Гамаль Абдель Насер”. “Правда” 1958, 29 апреля стр-19
26. Агарышев А. “Гамаль Абдель Насер”. М., 1975. стр-16
27. аш-Шафии Ш.А..Развитие национально-освободительного движения в Египте(1882-1956). М.,1961,стр-119
28. Беляев И. П., Е. М. Примаков. Египет: время президента Насера. М., 1981
29. Хамруш А Революция 23 июля 1952г в Египте М 1984 стр-102